

# KONSTITUTSIYA – ERKIN VA FAROVON HAYOT GAROVI!

Milliy tiklanishdan — milliy yuksalish sari

2020-yil 25-yanvardan chiqa boshlagan

# YANGI O‘ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 245 (1306), 2024-yil 3-dekabr, sheshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



## TOG‘-KON VA GEOLOGIYA SANOATIDA IQTISODIY SAMARADORLIKNI OSHIRISH – ZAMON TALABI

**Prezident Shavkat Mirziyoyev 2-dekabr kuni metallurgiya korxonalarining transformatsiya dasturlari hamda 2025-yilgi rejalari bilan tanishdi.**

So‘nggi yetti yilda bu sohada ishlab chiqarish 1,5 barobar o‘sgan. Xususan, yillik oltin qazib olish hajmi 2016-yilga nisbatan 26 tonnaga, kumush 77 tonnaga, mis 32 ming tonnaga oshgan.

Oxirgi besh yilda tog‘-kon va metallurgiya qariyb 9,5 milliard dollar investitsiya jalb qilindi, 15 ta yirik loyiha ishga tushirildi. Natijada bu soha iqtisodiyotni transformatsiya qilishda eng muhim drayverga aylanmoqda. Mamlakatimiz sanoati hajmining uchdan biri uning hissasiga to‘g‘ri kelyapti.

Tog‘-kon sanoati elektrotexnika, qurilish materiallari, kimyo, zargarlik kabi tarmoqlar uchun xomashyoni ko‘paytirib, ularning o‘shirishiga katta turtki beryapti. Shuningdek, kombinatlar 60 dan ortiq kichik va o‘rta korxonalar bilan kooperatsiya asosida yaqindan ishlayapti.

Bularni davom ettirib, iqtisodiy samaradorlikni oshirib borish — zamon talabi. Tarmoq korxonalarini jahon moliya bozorida jozibador kompaniyalarga aylantirish kerak.

Yig‘ilishda tog‘-kon sanoati va geologiya vaziri hamda kombinatlar rahbarlari shu boradagi rejalari bo‘yicha axborot berdi.

Jumladan, 2025-yilda tog‘-kon va geologiya sohasidagi loyihalarga 1 milliard dollar investitsiya jalb qilish ko‘zda tutilmoqda. Kaolin ishlab chiqarishni 50 foiz oshirish, ko‘mir qazib

olishni 10 million tonnaga yetkazish mo‘ljallanmoqda.

Navoiy tog‘-metallurgiya kombinati bu yil ilk bor xalqaro bozorda yevrobond joylashtirib, 1 milliard dollar arzon resurs jalb qildi. Kelgusi yil yana 500 million dollar yevrobond chiqarish rejalashtirilgan.

Olmaliq kon-metallurgiya kombinatida 3-mis boyitish fabrikasi hamda O‘zbekiston metallurgiya kombinatida yangi quyuv prokatlash majmuasi ishga tushirildi. O‘zbekiston texnologik metallar kombinatida “yashil” iqtisodiyot uchun muhim bo‘lgan noyob metallar xomashyosi kengaytirildi.

Davlatimiz rahbari kelgusi yilda kombinatlar transformatsiya orqali dunyo bozorida raqobatdoshligini oshirish bo‘yicha katta o‘zgarish qilishi zarurligini ta’kidladi.

Bunda tannarxni tushirish, faoliyatni to‘liq raqamlashtirish, xalqaro bozorlardan mablag‘ olib kelish, yangi texnologiyalarni joriy qilib, ish jarayonini avtomatlashtirish eng muhim vazifalar ekani ko‘rsatib o‘tildi.

Korxonalar jahondagi o‘zgarishlarga tez moslashib, yangi tashabbuslar ko‘rsatishi zarurligi aytili. Tejamkorlik va samaradorlik tamoyili asosida xarajatlarni kamaytirish, sanoat tarmoqlarini xomashyo bilan uzluksiz ta‘minlash choralari belgilandi.

O‘ZA

## O‘ZBEKISTON TINCHLIKSEVAR MAMLAKAT EKANINI NAMOYON ETMOQDA

2

## UCHINCHI RENESSANSNI BARPO QILISHNING ASOSIY DRAYVERI — VATANPARVARLIK

5

## TABIAT — O‘ZIMIZ

## YOXUD BIR UMRGA TATIGULIK TANBEH

6

## 8-DEKABR — O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI

# O‘ZBEKISTON — SUVEREN DAVLAT

**Konstitutsiyamizda belgilangan besh asosiy tamoyil — SUVEREN, DEMOKRATIK, HUQUQIY, IJTIMOIIY va DUNYOVIY davlat maqsadlarining birinchi tahlili**

Yangi O‘zbekistonni barpo etishga kirishganimizga sakkiz yil bo‘ldi. Tarixan qisqa bu davrda misli ko‘rilmagan o‘zgarishlar, evrilishlar guvohi bo‘lyapmiz. Hozir bu o‘zgarishlarni, har birimizning hayotimizga yangicha ruh bag‘ishlagan islohotlar samarasini, uning asoslarini alohida-alohida sanasak katta bir doston bo‘ladi.

Albatta, bu o‘zgarishlar asosida, Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning qat‘iy siyosiy iroda bilan butun xalqimizni buyuk maqsadlarga erishishda o‘zaro birdamlik va hamjihatlik yo‘lida birlashtirgani mujassam. Pirovardida ko‘pmillatli xalqimizda katta ishonch paydo bo‘ldi. Bu ishonch avvalgidek faqat kelajak uchun emas balki bugungi hayotimizni o‘zgartirishga bo‘lgan qudratli va real voqealar bilan mustahkamlanib, asoslanib bordi.

Va, eng muhimi, “ishlashga — ishi, yashashga — uyi bo‘lgan, fuqarolari tinch va erkin, hayotdan mamnun, dasturxon to‘kin, oilasi baxtiyor va farovon yashaydigan davlat qurishni maqsad qilish” oddiy gap emas edi. Biz o‘tgan qisqa davrda bu kabi ulug‘vor sa‘y-harakatlarimizning qonuniy asoslarini ham yaratadik.

Bosh asosimiz — 2023-yil 30-aprel kuni umumxalq referendumida yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamiz bo‘ldi.

Shu o‘rinda ushbu Konstitutsiyamizning alohida muhim jihatlari haqida ba‘zi ma‘lumotlarni keltirib o‘tsak.

**Birinchiidan**, referendumda ishtirok etgan fuqarolarning 90,21 foizi yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni yoqlab ovoz berdi. Bu xalqimizning Yangi O‘zbekistonni barpo etish bo‘yicha orzu-


**To‘rtinchiidan**, Bosh qonunimizni so‘zsiz va to‘liq amalga oshirish, unda mustahkamlangan ustuvor prinsiplarni Yangi O‘zbekiston ulug‘vor g‘oyasiga hamohang tarzda ro‘yobga chiqarish, davlat organlarining faoliyatini yangicha konstitutsiyaviy-huquqiy sharoitlarda yo‘lga qo‘yish, fuqarolar o‘z hayotida xalq Konstitutsiyasi ruhini yaqqol his etib turishini ta‘minlash maqsadi qo‘yildi.

**Beshinchiidan**, yangi tahrirdagi Konstitutsiya oliy yuridik kuchga ega ekanligidan kelib chiqib, davlat organlari va tashkilotlari, shu jumladan, sud va huquqni muhofaza qiluvchi organlar faoliyatida to‘g‘ridan to‘g‘ri va so‘zsiz qo‘llanilish prinsipi joriy etildi.

**Oltinchiidan**, Asosiy qonunimiz normalarini ularni amalga oshirish uchun boshqa qonunchilik hujjatlarining mavjud emasligi yoki qonunchilikka Konstitutsiyaga muvofiq o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritilmaganligi vaji bilan qo‘llashni rad etish qat‘iy tanqiqlandi.

Albatta, Konstitutsiyamizning yangi maqsadlari juda ko‘p va g‘oyat xalqchil tamoyillarga egaligi bilan ajralib turadi. Aslida, ularning har biri katta bir mavzu.

Shu bois, “Yangi O‘zbekiston” gazetasi jamoasi joriy haftada yangi tahrirdagi



umidlari va intilishlari hayotda o‘z ifodasini topayotganidan dalolat beradi.

**Ikkinchiidan**, yangi tahrirda qabul qilingan Konstitutsiyamizning 1-moddasida milliy davlatchilik tariximizda ilk bor O‘zbekiston — boshqaruvning respublika shakliga ega bo‘lgan **SUVEREN, DEMOKRATIK, HUQUQIY, IJTIMOIIY VA DUNYOVIY DAVLAT** ekani mustahkam belgilab qo‘yildi.

**Uchinchiidan**, Konstitutsiyada davlat qurilishining yangi strategik maqsadi — ijtimoiy davlat qurish ekani belgilab berildi, ijtimoiy adolat va birdamlik prinsiplari joriy etildi, inson huquq va erkinliklarini himoya qilishning mullaqo yangi mexanizmlarini nazarda tutuvchi konstitutsiyaviy asoslar mustahkamlandi.

**Konstitutsiyamizda belgilangan beshta asosiy tamoyil — suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish yo‘lidagi bosh maqsadlarimiz mazmun-mohiyatini birma-bir tahlil qilib boradi.**

Bir so‘z bilan aytganda, o‘ziga xos konstitutsiyaviy haftalik mohiyatini o‘zida birlashtirgan gazetamizning ushbu haftadagi beshta maxsus sonida yuqoridagi beshta muhim tamoyil alohida-alohida keng yoritildi.

Bugun qo‘lingizda turgan birinchi maxsus sonimizni “O‘zbekiston — suveren davlat” deb nomladik. Bu sonda siz suveren davlat maqomini mustahkamlash, xususan, yangi sinovlar va tahdidlar sharoitida milliy manfaatlar ustuvorligini ta‘minlash, o‘zaro ishonch va hamkorlikka asoslangan tashqi

siyosatni davom ettirish, iqtisodiy mustaqillik, ekologiya, yoshlar va ta‘limga e‘tiborning konstitutsiyaviy jihatlari haqidagi maqolalar bilan tanishasiz.


Prezidentimizning 2024-yil 17-oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni bayramiga tayyorgarlik ko‘rish va uni o‘tkazish to‘g‘risida”gi farmoyishida qayd etilganidek, “Konstitutsiya — erkin va farovon hayot garovi!”, degan bosh g‘oya bugun barchamiz uchun hayotiy shiorga aylanishi kerak. Bu g‘oya asosida xalqimizni hayotiy jo‘shqin maqsadlar sari ruhlantirish, xalq hokimiyatchiligi, inson qadri, erkinlik

va tenglik, ijtimoiy adolat va birdamlik kabi ezgu g‘oyalari atrofida jipslashtirish maqsadi mujassamdir.

Zero, Prezidentimiz ta‘biri bilan aytganda, hech shubha yo‘qki, mard va bunyodkor xalqimiz bilan birgalikda Yangi O‘zbekistonni — inson qadri ustuvor bo‘lgan jamiyat va xalqparvar davlatni albatta barpo etamiz.

Bu yo‘lda bizga Konstitutsiyamizda belgilab qo‘yilganidek, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat qurish kabi ezgu maqsadlarimiz yo‘ldosh bo‘ladi.

TAHRIRIYAT



Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli. Oliy ta'lim tashkilotlari qonunga muvofiq akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi huquqiga ega.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 51-moddasi.



www.yuz.uz

yuz.uznews

yuz\_official

yuz.uz\_news

yuz

xalqaro miqyosda tan olinayotgani va rivojlanayotganini anglatadi.

Mazkur natijalar ta'lim sohasidagi islohotlar samarasini ko'rsatadi va Konstitutsiyada belgilangan prinsiplarning amalda ishga tushirilganini bildiradi. Shuningdek, ta'lim tizimini global darajada muvaffaqiyatli rivojlantirishga poydevor bo'lmoqda.

Avvalgi Konstitutsiyada o'qituvchilar qadriyatini va ijtimoiy himoyasini ta'minlashga e'tibor qaratilgan bo'lsa-da, ijtimoiy muhofazasi aniq belgilangan modda mavjud emas edi.

Konstitutsiyada belgilangan yangi prinsiplar innovatsion faoliyatini rivojlantirishga yordam bermoqda. Tadqiqotlar va ilmiy ishlanmalarning dastlabki bosqichidagi yangi g'oyalarni va innovatsion loyihalarni qo'llab-quvvatlashni taqozo qiluvchi qonunlar mamlakatimizning yuqori ta'lim tizimini xalqaro tajribalar bilan uyg'unlashtirishga yo'l ochdi. Konstitutsiyaning 53-moddasiga ko'ra, davlat jamiyatning madaniy, ilmiy va texnikaviy rivojlanishi haqida g'amxo'rlik qiladi.

Hozir nafaqat universitetlar va tadqiqot institutlari, balki innovatsion texnoparklar va

har tomonlama rivojlanishi va jamiyatning a'zosi bo'lishi uchun zarur shart-sharoit ta'minlanadi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada yoshlarning intellektual, ijodiy, jismoniy va axloqiy jihatdan shakllanishiga alohida e'tibor beriladi. Buning natijasida ularning ta'lim olish, sog'lig'ini saqlash, uy-joyli bo'lish, ishga joylashish, bandlikka erishish va dam olish huquqlari amalga oshiriladi. Davlat yoshlarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishi uchun barcha zarur resurslar va imkoniyatlar bilan ta'minlaydi. Yoshlarning davlat va jamiyat hayotida faol ishtirok etishi, o'z fikrini erkin bildirishi uchun keng imkoniyatlar yaratiladi.

O'zbekistonda oliy ta'lim tizimini yanada takomillashtirish maqsadida 2024-yilda oliyog'ohlarga qabul jarayoni "avval test, so'ng tanlov" tamoyili asosida tashkil etildi. Bu amaliyot yoshlarga ta'lim olishda teng imkoniyatlar yaratish, sog'lom raqobat muhitida o'qishga jalb qilish imkonini beradi.

O'zbekistonda yoshlarning ijtimoiy faolligini oshirishga qaratilgan turli tadbirlar amalga oshirilmoqda. Shulardan "Ma'rifat ulashib" va "Adabiy-ma'rifiy haftaliklar" loyihalari doirasida 205,9 ming talaba va o'quvchi qamrab olindi. Bu tadbirlar yoshlarning ma'naviy rivojlanishi va bilimni oshirishga qaratilgan muhim qadam bo'ldi.

Mamlakatimizning barcha oliyog'ohida sportning 9 turi bo'yicha 11 ming ming 448 ta jamoa ishtirokida "Talabalar ligasi" musobaqalari o'tkazildi. Bu yoshlarning sportga qiziqishini oshirish va salomatligini mustahkamlashga xizmat qildi. Bundan tashqari, Ichki ishlar vazirligi bilan hamkorlikda 892 ming talaba orasida 10 ming 412 ta profilaktik tadbir tashkil etildi. Ular orqali yoshlar o'rtasida jinoyatchilikka qarshi kurashish, salomatlikni saqlash va ijtimoiy xatarlarni kamaytirishga erishildi.

Oliyog'ohlarda talabalar turar joy va o'qish uchun zarur sharoit bilan ta'minlash davlatning ustuvor vazifalaridan. Konstitutsiyaga muvofiq, yoshlarning ta'lim olish huquqi ta'minlanishi uchun talabalarga qulay va zamonaviy shart-sharoit yaratish talab qilinadi. 2024-yilda 15 ming 240 o'rinni talabalar turar joyi va 4000 o'rinli o'quv binosi foydalanishga topshirildi. Shu bilan birga, davlat oliy ta'lim muassasalarining barcha bosqich talabalarini talabalar turar joyiga joylashtirish jarayoni to'liq raqamlashtirildi. Bu chora-tadbirlar talabalarining ta'lim olish jarayonida o'zini erkin his etishi va ijtimoiy rivojlanishiga qaratilgan muhim qadamdir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi mamlakatimizdagi barcha sohani, ayniqsa, ta'lim, fan va yoshlar bilan bog'liq masalalarni qamrab olgan holda jamiyatimizning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy rivojlanishida katta o'rin tutadi. Unda belgilab qo'yilgan huquqiy norma va prinsiplar, ayniqsa, ta'lim tizimidagi islohotlar, akademik erkinlik va ilmiy tadqiqotlar rivojlanishiga qaratilgan sa'y-harakatlar, yoshlar va professor-o'qituvchilar uchun yaratilgan shart-sharoitlar davlatning ta'lim sohasidagi izchil va samarali siyosatida muhim ahamiyatga ega.

2024-yilda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganiga 32 yil to'ldi. Konstitutsiya huquqiy davlat qurishdagi asosiy hujjat bo'lib, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish, jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlashda hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu davrda mamlakatimizda muhim ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar amalga oshirildi. 2023-yil 30-aprel kuni o'tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish yo'li bilan O'zbekiston Respublikasining yangi tahrirdagi Konstitutsiyasi qabul qilindi. Uning yangi tahriri mazmunan va shaklan takomillashtirish bo'lib, jamiyatimizning barcha jabhasini, jumladan, oliy ta'lim, fan va yoshlar bilan bog'liq masalalarni qamrab oldi.

Konstitutsiyada davlatning ta'lim va ilm-fan rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan mas'uliyati, yoshlarning ijodiy va intellektual rivojlanishiga qaratilgan huquqiy va ijtimoiy majburiyatlar aniq belgilab qo'yilgan. Bu esa mamlakatimizning kelajakdagi taraqqiyoti uchun muhim qadam bo'lib, oliy ta'lim va ilmiy tadqiqotlar sohasidagi islohotlarning mustahkam huquqiy asosini yaratadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida ta'limga alohida e'tibor qaratilib, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining huquqiy asoslari belgilangan. Jumladan, 51-moddada fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli ekanini qayd etilgan.

1992-yili qabul qilingan Konstitutsiyada oliy ta'lim va huquqiy asoslariga alohida e'tibor berilgan bo'lsa-da, yangi tahrirdagi asosiy qonunda ta'lim muassasalarining akademik erkinligi, o'zini o'zi boshqarish va tadqiqotlar o'tkazish huquqlari mustahkamlangan. Bu yoshlarning bilim olish va ilmiy ishlarni olib



Qo'ng'iroq SHARIYOV, oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vaziri

borishdagi erkinligini ta'minlash, ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirishga qaratilgan muhim qadamdir.

Ta'lim tizimini yanada rivojlantirish va zamon talablariga moslashtirishga qaratilayotgan chora-tadbirlar, xususan, Konstitutsiyamizda belgilab qo'yilgan akademik erkinlik, o'zini o'zi boshqarish, tadqiqotlar o'tkazish va o'qitish erkinligi O'zbekistonda ta'lim tizimini zamon talablariga moslashtirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Hozir yurtimizda talabalar soni 1 million 400 mingdan oshib, yoshlarni oliy ta'lim bilan qamrab olish darajasi 39 foizga yetdi. Shu bilan birga, oliyog'ohlarimizdagi ta'lim sifati ham sezilarli o'sib bormoqda.

Birgina 2024-yilda 6 ta oliyog'ohdagi 38 ta ta'lim dasturi xalqaro akkreditatsiyadan o'tkazildi. Bu O'zbekiston oliy ta'limiga xalqaro talablarga moslashish va yangi imkoniyatlar yaratishga yordam beradi. Shu bilan birga, 9 ta xorijiy oliyog'oh bilan hamkorlikda 15 ta qo'shma ta'lim dasturi tashkil etildi.

Oliy ta'lim muassasalarimiz xalqaro reytinglarda muvaffaqiyatga erishayotganini ham alohida qayd etish lozim. Joriy yilda QS xalqaro reytingida "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandisligi instituti" milliy tadqiqot universiteti (547-o'rin) va O'zbekiston Milliy universiteti (781-790-o'rin) ilg'or 1000 talikdan o'rindi. Uchta oliyog'ohimiz esa Times Higher Education xalqaro reyting tashkiloti e'lon qilgan World University Rankings-2025 oliy ta'lim tashkilotlarining 1000 taligi ro'yxatiga kiritildi. Bu, o'z navbatida, O'zbekiston ta'limining

Ya'ni oliy ta'lim sohasida o'qituvchilarning ijtimoiy himoyasiga oid chegaralar va aniq huquqiy mexanizmlar belgilanmagandi. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada esa bu masalaga alohida ahamiyat berilib, o'qituvchilarning ijtimoiy va moddiy farovonligini ta'minlash, kasbiy o'sishini rag'batlantirish va qadrgimmatini himoya qilish haqida aniq normalar belgilab qo'yilgan.

Birgina 2024-yilda 3450 professor-o'qituvchi xorijda malaka oshirgan. 2025-2030-yillarda chet elda malaka oshirgan yoki stajirovka o'tagan professor-o'qituvchilar ulushini 20 foiz oshirish rejalashtirilmog'ani. Professor-o'qituvchilar xorijda malaka oshirarkan, yangi bilim va tajribaga ega bo'ladi. Bu, o'z navbatida, mamlakatimiz ta'lim tizimini xalqaro darajadagi standartlarga moslashtirish va ilg'or pedagogik usullardan foydalanishga xizmat qiladi.



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



# O'ZBEKISTON TINCHLIKSEVAR MAMLAKAT

## EKANINI NAMOYON ETMOQDA

Bugun dunyo miqyosida o'ta murakkab vaziyat hukmronlik qilayotir. Bu tahlikali davr har bir davlat oldiga tinchliksevar tashqi siyosat, uzoq va yaqin mamlakatlar bilan do'stlik aloqalarini o'rnatish, barcha sohada o'zaro hamkorlikni rivojlantirish talabini qo'yadi. Zero, xalq farovonligi, baxtli saodat mamlakat tinchligiga bog'liq.

O'zbekistonda yangilanishlar davri boshlanganiga hali ko'p bo'lmas. O'rtimizda yastanib yotgan bobotari oldida bu juda qisqa muddat. Biroq yangi O'zbekiston g'oyasi tufayli shu kichik vaqt oraliqida katta o'zgarishlar amalga oshirildi, nufuzli minbarlarda salmoqli tashabbuslar ilgari surildi, samarali takliflar bilan dunyo jamoatchiligi e'tibori qozonildi.

Dastlabki yillarda har bir sohada uzoqni ko'zlab puxta rejalarni tuzildi, aniq maqsadlar qo'yildi. Og'ishmay bo'lini bosib o'tish va marraga yetish uchun sobit iroda, mustahkam prinsip lozim edi. Davlatimiz bu borada qat'iy yo'lni belgilab oldi. Avvalo, qo'shni mamlakatlar bilan hamkorlik aloqalarini kuchaytirdi.

2017-yil Prezidentimiz Samarqand shahrida o'tgan "Markaziy Osiyo: yagona tarix va umumiy kelajak, barqaror rivojlanish va taraqqiyot yo'lidagi hamkorlik" mavzusidagi xalqaro konferensiyadagi nutqida Markaziy Osiyo mamlakatlarining umumiy kelajak uchun mas'uliyatni his etishi mintaqa barqaror rivojlanishi va farovonligini mustahkam poydevori va kafolati ekaniga alohida urg'u

berdi. Jumladan, "O'zbekiston bahsli masalalarni tezroq hal qilish va o'zaro ishonchni yanada mustahkamlash tarafdoridir. Davlatlarimiz aynan yaxshi qo'shni-chilik va o'zaro manfaatli hamkorlik tamoyillari asosida savdo-iqtisodiy, transport-kommunikatsiya, madaniy-gumanitar sohalarida, xavfsizlik va barqarorlik masalalarida o'z salohiyatini yanada samarali amalga oshira oladi. Ishonchim komil, bundan barcha — Markaziy Osiyo davlatlari ham, boshqa mamlakatlar ham birdek manfaat ko'radi. Bizning bosh maqsadimiz — umumiy sa'y-harakatlarimiz bilan Markaziy Osiyoni barqaror, iqtisodiy rivojlangan va yuksak taraqqiyot etgan mintaqaga aylantirishdan iborat", dedi. Buning uchun turli nizolar qo'zg'aydigan va unga ko'maklashadigan sabab va omillarga birgalikda barham berish, umumtinchlik ustuvor manfaatlarini inobatga olish asosida milliy rivojlanishni ta'minlash zarur edi. Davlatimiz rahbarining mazkur chaqirig'i iliq kutib olindi. Markaziy Osiyo davlatlari bu yo'lda birlashib, istiqbolga jadal qadam tashladi.

Hamma gap ilk odimni qo'yishda. Qadam bosish uchun esa bilim, tafakkur, jasorat, eng muhimi, ishonch kerak. Davlatimiz rahbari O'zbekiston siyosati tinchliksevar ekanini dunyoga namoyish etadi. Uning tashabbusi va ezuq maqsadlari o'z shi davlatlar bilan ko'p yillardan beri hal bo'lmay kelayotgan

chegara muammolarining muvaffaqiyatli yechilishida ko'rindi. Islohotlar natijasida Markaziy Osiyo mintaqasida o'zaro ishonch muhiti mustahkamlandi, qo'shni davlatlar bilan turli madaniy-gumanitar, iqtisodiy va boshqa sohalaridagi hamkorlik sezilarli darajada faollashdi. Mintaqadagi siyosiy muhit tubdan yaxshilangani, bu O'zbekiston va qo'shnilari o'rtasidagi tovar ayirboshlashning jadal sur'atda o'sishida namoyon bo'ldi.

Tashqi siyosatimizning bosh yo'nalishi ham Markaziy Osiyo mintaqasidir. O'zbekistonning Markaziy Osiyodagi siyosati mintaqada tinchlik va barqarorlikni ta'minlash, mintaqaviy xavfsizlikning muhim muammolarini hal etish, jumladan, Afg'onistondagi vaziyatni hal qilishga ko'maklashishga qaratilgan. Davlatimiz bu borada ham tashabbuskor bo'ldi. Katta minbarlardan turib, Afg'oniston masalasini ilgari surdi.

Prezidentimiz 2021-yil BMT Bosh Assambleyasining 76-sessiyasidagi nutqida Afg'onistonda tinchlik va osoyishtalik o'rnatilishidan nafaqat O'zbekiston va qo'shni mamlakatlar, balki butun dunyo manfaatdor ekanini ta'kidlab, jahon e'tiborini mazkur davlatga qaratdi.

Mamlakatimiz tashqi siyosiy faoliyatining bosh maqsadi — davlat mustaqilligi va suverenitetini, xalqaro maydondagi o'rni va rolini mustahkamlash, yon-atrofdagi xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shni-chilik muhitini shakllantirish, respublikaning tashqi iqtisodiy manfaatlarini faol tarzda ilgari surishdan iborat.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 18-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi."

O'zbekiston BMT faoliyatida muhim ahamiyat kasb etib borayotir. Mustaqil Davlatlar Hamdo'stligi, Shanxay hamkorlik tashkiloti, Turkiya davlatlar tashkiloti hamda Yevropada xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti bilan ushbu tuzilmalar mexanizmlaridan zamonaviy muammolar va tahdidlarga qarshi kurashish, ko'p tomonlama hamkorlikni mustahkamlashda samarali foydalanish uchun o'zaro sheriklikni yanada rivojlantirishni maqsad qilgan.

Bundan tashqari, O'zbekiston xalqaro moliya institutlari, jumladan, Osiyo taraqqiyot banki, Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg'armasi, Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo infratuzilma banki, investitsiyalari banki va Yevropa investitsiya banki bilan energetika, transport, qishloq xo'jaligi, uy-joy qurilishi, kichik biznes

va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish bo'yicha yangi loyihalarni amalga oshirishda hamkorlikni faollashtirish tarafdori.

Bugun O'zbekiston 140 dan ortiq davlat bilan diplomatik aloqa o'rnatgan. Toshkentda chet el elchixonalarini, bosh konsulliklar, xalqaro tashkilotlar vakolatxonalarini hamda savdo vakolatxonasi faoliyat yuritmoqda.

Xorijiy mamlakatlar va xalqaro tashkilotlarda O'zbekiston Respublikasining diplomatik va konsullik vakolatxonalarini mavjud. O'zbekiston 100 dan ortiq xalqaro tashkilot a'zosi bo'lib, mamlakatimiz turli ko'p tomonlama hamkorlik tuzilmalari bilan o'zaro sheriklik aloqalarini rivojlantiradi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 18-moddasiga ko'ra, "O'zbekiston Respublikasi

davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshiradi. O'zbekiston Respublikasi davlatning xalqning oliy manfaatlaridan, uning farovonligi va xavfsizligidan kelib chiqqan holda ittifoqlar tuzishi, hamdo'stliklarga va boshqa davlatlararo tuzilmalarga kirishi hamda ulardan chiqishi mumkin".

Bosh qonunimizda muhlab qo'yilgan ushbu hayotbaxsh norma asosida mamlakatimizning tashqi siyosati izchil rivojlanadi. Zero, O'zbekiston tanlagan yo'l tinchliksevardir.

Bashorat YUNUSOVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari O'zbekiston Respublikasining davlat suverenitetini va hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilish uchun tuziladi. Qurolli Kuchlarning tuzilishi va ularni tashkil etish qonun bilan belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 152-moddasi.

www.yuz.uz f yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz

# VATAN HIMOYASI

## ISHONCHLI QO'LLARDA

Davlat chegaralari har bir davlatning suverenitetini belgilovchi muhim omillardan. Chegara mustahkam bo'lmagan ekan, yurt tinchligi, fuqarolar osoyishtaligi xavf ostida qoladi. Shu bois, chegaralar daxlsizligini ta'minlash har bir suveren davlat oldida turgan ustuvor vazifadir. Buning uchun qalbidan vatanga sadoqat tuyg'usi yuksak shakllangan, ma'nan va jismonan barkamol avlodni voyaga yetkazish barobarida mamlakatning mudofaa imkoniyatini oshirish, armiya saflarini salohiyatli kadrlar bilan to'ldirish hamda qurolli kuchlar tizimini zamon bilan hamqadam rivojlantirish muhim ahamiyatga ega.

Bundan bir necha yil ilgari bu jahdada ishlarimiz ancha oqsoq edi. Qolaversa, harbiy sohaning moddiy-texnik bazasi ham zamon talabiga javob bermasdi. 2016-yildan boshlab milliy armiyamizni isloh qilish, Qurolli Kuchlarning tashkiliy tuzilmasini takomillashtirish, qo'shinlarni zamonaviy qurol-yarog' va texnika bilan jihozlash, harbiy xizmatchilarning jangovar tayyorgarligi va shayligi, kasbiy mahoratini oshirishga e'tibor kuchaydi. O'tgan davrda bo'linmalarining texnik va zaxira ta'minoti tizimi tubdan qayta ko'rib chiqildi, a'zolarining xizmatlari va harbiy klasterlar tizimi joriy qilindi. Mudofaa sanoati majmuasi korxonalarini faol rivojlantirilmogda, ayrim turdagi qurol-yarog' va texnika turlarini ishlab chiqarish va modernizatsiya qilishni mahalliyashtirish boshlandi.

"Xalq va armiya — bir tanu bir jon" degan ezgu g'oya asosida bu yo'nalishdagi islohotlar natijasida milliy armiyamizda chuqur sifat o'zgarishlari yuz bermogda. Uning saflarida xizmat qilish tom ma'noda shon-sharaf ishiga aylanib bermogda. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tayyorlash borasidagi ishlar ham jonlandi. Bu yo'nalishda mahallalarda ko'plab tadbirlar tashkil etilyapti. "Jasorat maktablari"dagi o'quv yig'inlariga 5 mingdan ziyod yosh jalb qilindi. Harbiy xizmatchilar va oila a'zolarining ijtimoiy himoyasi kuchaytirildi. Harbiy oliy ta'lim muassasalari faoliyatida harbiy kadrlarni ilg'or texnologiyalar asosida tayyorlash bo'yicha yangi tizim joriy qilindi.

Bundan tashqari, harbiy sohani raqamlashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.



**Qutbiddin BURHONOV,**  
Oliy Majlis Senatining Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi raisi

Qo'shinlarni boshqarishning zamonaviy avtomatlashtirilgan tizimi bosqichma-bosqich joriy etilib, aloqa tizimlari takomillashtirilmogda. Natijada qo'shinlarning jangovar tayyorgarlik samaradorligi, harbiy xizmatchilarning

professionaligi, jangovar ruhi va psixologik shayligi sezilarli darajada oshdi. Bugungi tahlikali davrda bu natijalar bilan qanoatlanib, xotirjamlikka berilib bo'lmaydi. Sababi dunyo notinch, davlatlararo nizolar, kelishmovchiliklar insoniyatning tinch hayotiga xavf solmogda.

Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir nomzodini ko'rib chiqishga bag'ishlangan majlisida bu masalaga to'xtalib, shunday murakkab pallada davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini, xalqimizning tinch va erkin hayotini eng bebaho boylik sifatida asrash va himoya qilish muhim vazifamiz bo'lib qolishini ta'kidladi. Mamlakatimiz xavfsizligi, yurtimiz mudofaasi nafaqat Qurolli Kuchlar va huquqni muhofaza qilish idoralari, balki O'zbekistonni o'zi uchun ona vatan, deb biladigan, millati, tili va dinidan qat'i nazar, barchaning muqaddas burchi ekanini qayd etdi. Buning uchun yagona vatan ko'p millatli yagona ahil oila tuyg'usi har birmizning qalbimiz, yuragimizdan chuqur joy olishi lozim.

Dunyoda turli xatar va tahdidlar avj olib borayotgan hozirgi sharoitda mamlakatni muhofaza qilish, avvalo, o'zini shu yurt farzandini deb bilgan har bir insonning sharafli burchidir. Yurtimiz ta'lim tizimi va ma'naviy-ma'rifiy jahdada islohotlarda bu masalalarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Yoshlarni harbiy-vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hamda Qurolli Kuchlar tizimidagi ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirishda bilimdon, xalqiga, vataniga sodiq yoshlarni tarbiyalash bo'yicha keng miqyosli ishlar qilinmogda.

Zamonaviy fikrlaydigan, davlatimiz manfaatini va suverenitetini fidokorona himoya qilishga tayyor, jismonan sog'lom, ma'nan yetuk avlodni tarbiyalash maqsadida "Temurbeklar maktabi" harbiy akademik litseylari ochildi. Ushbu ta'lim dargohlarida bo'lg'usi harbiylar yoshligidanoq saralanib, ma'naviy-axloqiy va harbiy-vatanparvarlik ruhida, jismonan barkamol etib tarbiyalanmogda. O'quvchilarga tabiiy va aniq fanlar, xorijiy tillar va zamonaviy axborot texnologiyalari bo'yicha puxta bilim berilmogda. Harbiy ishda boshlang'ich bilimlar o'qitilyapti. Jahon tabalari asosida



## 8-DEKABR — O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI KONSTITUTSIYASI KUNI



ta'lim olish imkoniyati yaratilmogda.

Mazkur jarayon yurtimizda milliy professional armiyani shakllantirish uchun qo'yilgan muhim qadamlardan. Zero, dunyoning har qanday zamonaviy qurol-yarog'i va texnikasi intellektual salohiyatga ega, bilimli va ma'nan barkamol kadrlar tomonidan boshqariladi. Shu bois, bugun mamlakatimiz mudofaa tizimida kadrlar milliy zaxirasi professional mutaxassislar bilan to'ldirilmoqda.

Prezidentimizning tegishli qaroriga muvofiq, oliy harbiy ta'lim tizimida ham qator islohotlar amalga oshirildi. Jumladan, Toshkent oliy umumqo'shin qo'mondonlik bilim yurti negizida xorijning ilg'or texnologiyalari va zamonaviy o'quv vositalarini o'zida mujassam etgan Qurolli Kuchlar akademiyasi, shuningdek, Qurolli Kuchlar harbiy tibbiyot akademiyasi hamda Jamoat xavfsizligi universiteti tashkil etildi.

Boshlang'ich harbiy ta'limni o'zlashtirgan yoshlar mazkur harbiy oliy ta'lim muassasalari, shuningdek, Chirchiq oliy tank qo'mondonlik-muhandislik bilim yurti, Oliy harbiy aviatiya

bilim yurti, Mudofaa vazirligi Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va aloqa harbiy institutida professional bilim hamda ko'nikmalarni egallamogda. Mehnat faoliyati davomida esa rivojlangan mamlakatlarda malaka oshirib, eng so'nggi harbiy axborot texnologiyalari va qurol-aslahalardan amaliyotda keng foydalanilyapti. Chinakam harbiycha hayotga moslashib, yurti va xalqiga sadoqat bilan xizmat qilmogda.

Milliy armiyamizning tashkiliy tuzilmalari takomillashirilishi natijasida qo'shinlarning jangovar tayyorgarligi, harbiy qudrati va salohiyati yanada oshirildi. Harbiylarimiz xalqaro harbiy o'quv mashg'ulotlari, armiya va sport musobaqalarida faxrli o'rinni egallamogda.

Ayni paytda yurtimizda bu sohada ishlar izchil davom etyapti. "O'zbekiston — 2030"

strategiyasi doirasida mamlakatimiz xavfsizligi va hududiy yaxlitligini, jamiyatimizda tinchlik va totuvlikni ta'minlash, yurtimiz mudofaa qobiliyatini yanada mustahkamlash va Qurolli Kuchlarimizni rivojlantirish maqsadida izchil ishlar bajarilyapti.

Bu borada Senatning Mudofaa va xavfsizlik masalalari qo'mitasi tomonidan qilinayotgan ishlar ham soha rivojida o'z o'miga ega bo'lmoqda. Xususan, Senat ishchi guruhi a'zolari mudofaa tizimida me'yoriy-huquqiy hujjatlar ijrosini ta'minlash borasidagi ishlarni o'rganib bermogda.

Bunday o'zgarishlar tufayli milliy armiyamiz har qanday tahdid va xavf-xatarga munosib zarba bera oladigan qudratga, el-yurt tayanchi va suyanchiga, yoshlar va harbiy xizmatchilarni vatanparvarlik va sadoqat ruhida tarbiyalaydigan muhim institutga aylanmogda.

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



# KONSTITUTSIYAGA TAYANIB YASHASH HAYOT TARZIMIZGA AYLANMOG'I ZARUR



Bugun jamiyatimizning siyosiy faolligi har qachongidan yuksak. Yurtimiz tarixida ilk bor yangi tahrirdagi Konstitutsiyamiz umumxalq ovoz berish yo'li — referendum orqali qabul qilindi. Mamlakatning yangi qiyofasini shakllantirish bo'yicha ishlab chiqilgan strategik dasturlar va "yo'l xaritalari" asosida demokratik islohotlar izchil amalga oshirilmoqda.

ongidagi tub o'zgarishlar, nafaqat o'zimizni, dunyoqarashimizni, munosabatlarni, balki amaldagi Konstitutsiyamizni ham islohotlar obyekt sifatida kun tartibiga qo'ydi. Bu zarurat o'z vaqtida anglanib, referendum kun tartibiga chiqarilgan va uning muhokamasi xalqimizga ishonib topshirilgan xalq iradasiga tayanilgan demokratiya va xalqchil siyosatning yuksak darajasidir, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 1-moddasida ilk bor O'zbekiston boshqaruvining respublika shakliga ega bo'lgansuveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanini belgilab qo'yildi. Mazkur qoidalar o'zining konstitutsiyaviy maqomi va prinsipial mohiyatiga ko'ra, amalga oshirilgan konstitutsiyaviy islohotlarning asosiy maqsadidir.

154-moddasida 1-moddada mustahkamlangan konstitutsiyaviy tuzum va respublikaga xos boshqaruvning ushbu qoidalariga rioya bo'lishi chiqilishi mumkin emasligi haqidagi qat'iy norma belgilandi. Xususan, suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlatlik tamoyillari o'zgarish qoida sifatida mustahkamlandi. Boshqacha aytganda, bu yuqorida sanab o'tilgan davlat belgilari barqaror va o'zgarishsizligini konstitutsiyaviy kafolati hisoblanadi.

Huquqiy davlat butun vujudi bilan huquqqa, qonungu so'zsiz bo'ysungan davlatdir. Unda qonun barcha uchun barobar, qonun oldida barcha teng. Ayni paytda qonunning o'zi xalqchil va adolati bo'lmog'i talab etiladi.



**Akmal RAHMONOV,**  
O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy sudi sudyasi, yuridik fanlar nomzodi

Qonunlar nafaqat bir-biriga zid bo'lmaslari, Konstitutsiya talabi va ruhiga to'liq mos bo'lishi barobarida, birinchi navbatda, inson huquq va erkinliklari kafolatlanishi huquqiy davlatning muhim shartlaridan biridir.

Mamlakatimizda islohotlar insonning sha'ni, qadr-qimmatini, huquq va erkinliklari bundan buyon barcha sohalarida ustuvor ahamiyat kasb etishini qat'iy qoidaga aylantirdi. "Inson qadri uchun" g'oyasi hamda konstitutsiyaviy islohotlarning bosh tamoyili bo'lgan "inson — jamiyat — davlat" yondashuvi yangi tahrirdagi Konstitutsiyada markaziy o'rinni egallaydi. Bu Bosh qonunning fundamental ahamiyatga ega bo'lgan "O'zbekiston — huquqiy davlat" degan normasining o'ziga turgan inson masalasi barcha munosabatlarning bosh omili ekanini belgisi.

O'zbekiston Prezidentining Konstitutsiyaga amal qilinishining kafali sifatida qonun ustuvorligini ta'minlash, har bir fuqaroning huquq va erkinliklarini himoya qilishdagi o'rini ham alohida ta'kidlab o'tish zarur. Prezident davlat suverenitetini, hududiy yaxlitligini muhofaza qilish, davlat organlarining o'z vazifalarini bajarishi va muvofiqlashgan hamkorligini ta'minlash, konstitutsiyaviy tuzumni mustahkamlash bo'yicha barcha sharoitlarni yaratish uchun zarur choratadbirlarni ko'radi, davlat organlari va mansabdor shaxslarning faoliyatiga baho beradi. O'z vaqtida Sohibqiron Amir Temur bobomiz "Davlat qonunlar asosida qurilmas ekan, unday saltanatning shukubi, qudrati va tarkibi yo'qoladi" deb ta'kidlagan edi. Shu nuqtayi nazardan, Konstitutsiya va qonun ustuvorligini ta'minlash biz bunoyd etayotgan demokratik huquqiy davlatning bosh mezonini hisoblanadi.

Yangilangan Konstitutsiyani hayotga joriy etish, ijrosini ta'minlash uchun uning mazmun-mohiyatini xalqimiz o'rtasida keng targ'ib qilish bo'yicha oldimizda aniq vazifalar turibdi. Davlatimiz rahbari ta'kidlaganidek, mamlakatimiz taraqqiyotini yangi pog'onaga olib chiqish uchun boshqaruv ham, qonunchilik ham, jamiyatimiz ham o'zgarishi kerak. Agar shunday qilmasak, muammolarni ko'rib, ko'rmaslikka olsak, zamondan orqada qolamiz. Xalqimiz, yosh avlodimiz bizdan rozi bo'lmaydi.

Bosh qonunimizning barcha qoidalari tahliili asosida mushohada qilish ko'risla, O'zbekiston konstitutsiyaviy davlatdir. Konstitutsiyaviy davlat deganda, davlat hokimiyati idoralari Konstitutsiyada belgilangan tartib va prinsiplar asosida shakllantiriladigan va konstitutsiyaviy normalarga qat'iy rioya etgan holda o'z faoliyatini amalga oshiradigan davlat apparati tushuniladi. Konstitutsiyaviy davlat mamlakatning butun hududida va davlat faoliyatining barcha sohalarida konstitutsiya, qolaversa, joriy qonunlarning ustunligi ta'minlangan davlatdir. Konstitutsiyaga tayanib yashash hayot tarzimizga aylanmog'i zarur. Prezidentimiz ta'kidlaganidek, "Yangilangan Konstitutsiyamizda muhrlangan ustuvor maqsad va vazifalarni amalga oshirish kelgusi faoliyatimizning asosiy ma'nomozmunini tashkil etadi". Bu huquqiy davlat qurish uchun zarur muhim talablardan biridir.



Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi. Monopol faoliyat qonun bilan tartibga solinadi va cheklanadi.

### O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 67-moddasi.



www.yuz.uz

f yuz.uznews

Telegram yuz\_official

yuz.uz\_news

yuz

## Tahlil va taqqos

# IQTISODIY SUVERENITET — MUSTAQILLIK DEMAKDIR

Mamlakatimiz iqtisodiy jihatdan taraqqiy etib borishi barobarida suvereniteti ham tobora mustahkamlanmoqda. Chunki iqtisodiy masalalar mustaqillikning eng muhim jihati. Shu ma'noda, yangi O'zbekistonda iqtisodiy o'sishga jiddiy e'tibor berilayotgani bejiz emas. Negaki barcha sohadagi yutuqlar iqtisodiy barqarorlikka bog'liq.

Iqtisodiyot yaxshi bo'lsa, yoshlar yuqori sifati ta'lim-tarbiya oladi. Natijada malakali kadrlar mamlakatni har jihatdan yuksaltiradi. O'z o'rnida iqtisodiy barqarorlik ma'naviy boyliklarga katta e'tibor berish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga keng imkoniyat yaratadi. Natijada mamlakat suvereniteti mustahkamlanib boradi. Bular isbot talab etmaydigan haqiqat.

O'tgan qisqa davrga tub islohotlar tufayli yurtimiz iqtisodiyoti keskin o'sishga yuz tutdi. Demak, suverenitetimiz mustahkamlandi. Keling, buni aniq raqamlarda tahlil etsak. Iqtisodiyotimiz 100 milliard dollarlik tarixiy marzadan oshdi. Bu qisqa muddatda 2 karra o'sish degani. 2018-yilda aholi jon boshiga daromad 1600 dollardan to'g'ri kelardi. Hozir bu ko'rsatkich 3 ming dollarga yetishi kutilyapti. Natijada Jahon banki 2024-yilda O'zbekiston Yevropa va Markaziy Osiyoda iqtisodiyoti eng tez o'sayotgan 3 ta davlat qatoridan joy olganini e'tirof etdi. Bugun O'zbekiston nafaqat o'zining, balki Markaziy Osiyo mintaqasining iqtisodiy yuksalishiga jiddiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Bu o'z-o'zidan bo'lib qolgan yo'q. Kompleks chora-tadbirlar natijasida ko'zlangan mara zabt etilib, yangi cho'qqilar ortiq investitsiya kiritilgan. Ya'ni o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya hajmi o'tgan davrda 6 karra ko'paygan. Natijada yuqori daromadli 1,5 millionta ish o'rni ochilgan. Demak, xorijlik ishbilarmonlar keltingan mablag' evaziga shuncha kishi ishli bo'lib, oilasiga baraka keltirgan.

Yana bir muhim jihat, soliq tizimining isloh etilishi bo'ldi. Buning natijasida tadbirkorlik faoliyatini yo'lga qo'yish osonlashdi. Birgina misol: avval soliqlar sabab yashirin iqtisodiyot ulushi yuqori edi. Bunday faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga tushuntirildi. Ularni kamaytirish emas, imkoniyat berish orqali yashirin iqtisodiyotning kamayishiga erishildi. Muhimi, tadbirkorlar, investorlarning O'zbekistonga ishonchi ortdi. Bu ishonch davlatimiz

non uchun navbatda turgan. Qishloq joylarda un topish muammo, topilgani ham falon pul bo'lardi. Esimda, bir safar cho'ponlar non izlab qishloq'imizga kelganida katta qo'chqorni bir qop bug'doyga almashirmoqchi bo'lgan. Ammo o'sha bug'doyning o'zi yo'q edi. O'sha yillarda o'g'irlik avj oldi. Katta yoshdagilar tunda dalaga chiqib bug'doy o'rib kelar, kunduzi davlat xirmoniga ketayotgan texnikaga osilib don o'marardi. Ularning yo'lini hatto qonun himoyachilari ham to'sa olmasdi. O'smirlar esa o'z ehtiyoji uchun uyidan don o'g'irlab sotishi odatiy holga aylangan edi.

Ha, o'sha paytlarda xalqimizni ishsizlik qynar, o'g'irlik, tovlamachilik ko'paygandi. Odamlar hatto davlat mulkini qanday talon-toroj qilganini aytib maqtanardi. Chunki qorni och, kelajagi so'roq ostida turgan jamiyatda ma'naviyat, insoniy tuyg'ular haqida o'ylashning imkoni bo'lmaydi. Bu o'z-o'zidan vatanparvarlikni kamaytiradi, yurtga sidqidildan xizmat qiladigan odamlar safini qisqartiradi. Hozir jamiyatimizdagi turli illatlar haqida kuyinib gapiramiz. Buning sabablarini zamon tezlashgani, texnika taraqqiyoti kabi jihatlardan ham asoslaymiz. Bu qisman to'g'ri. Ammo unutmashlik kerak, og'ir sinovlarda orttirilgan illatlar uzoq yillar davomida jamiyatni qiynaydi. Xalqimiz mustaqillikning o'tish davrini boshdan o'tkazishi, hozirgi sinovlarda dach kelishi qaysidir ma'noda tabiiy holat. Negaki o'sha paytda iqtisodiy ahvolumiz shuni taqozo etardi. Shu ma'noda, iqtisodiy suverenitet barcha masalaning yechimidir.

Bugun yangi O'zbekiston muloqo yangi davri boshdan kechiryapti. Erishtilgan iqtisodiy o'sishlar mana shu davrning quvvat manbaidir. Mazkur quvvatdan to'liq va odilona foydalanish uchun yurtimizda katta islohotlar boshlandi. Xususan, ilgari to'liq davlat tasarrufida bo'lgan sohalar boshqaruviga zamonaviy usullar joriy etildi. Ya'ni energetika, kimyo, aviatsiya, geologiya, metallurgiya, mashinasozlik, ta'lim va tibbiyotda xususiy sektor va davlat-xususiy sheriklik munosabatlariga keng yo'l ochildi. Natijada iqtisodiyotning kuchli drayverlari bo'lgan jabhalarda keskin o'sish kuzatildi.



rabharining har yili tadbirkorlar bilan ochiq muloqotida yanada mustahkamlanmoqda. Buni keyingi yillardagi investitsiya miqdoriga qarab ham bilish mumkin. So'nggi 7 yilda 120 milliard dollardan ortiq investitsiya kiritilgan. Ya'ni o'zlashtirilgan xorijiy investitsiya hajmi o'tgan davrda 6 karra ko'paygan. Natijada yuqori daromadli 1,5 millionta ish o'rni ochilgan. Demak, xorijlik ishbilarmonlar keltingan mablag' evaziga shuncha kishi ishli bo'lib, oilasiga baraka keltirgan.

Bu kabi o'sish sur'ati xalqning bugunidan rozi bo'lib yashash kayfiyatini kuchaytiradi. Fuqarolar bir butun xalq, yagona vatan bo'lib shakllana boradi. Shu bois, mamlakatimizda kambag'allikka qarshi kurashga jiddiy e'tibor berilmoqda. Hatto bu borada maxsus dastur qabul qilindi. Yangilanishlar natijasida so'nggi 4 yilda kambag'allik darajasi 23 foizdan 11 foizga tushdi. Shu yilning o'zida bu ko'rsatkich 9 foizga tushishi kutilyapti. Bu yana 106 ming oila kambag'allikdan chiqariladi, orzulari sari yo'l ochildi, degani.

Inson orzulariga erishishi uchun, avvalo, tom ma'noda mustaqil bo'lishi zarur. Shaxsning erki qo'lida bo'lishi uning yuqori intellekti va iqtisodiy farovonligiga bog'liq. Hatto juda qadim zamonlarda ham odamlar mazkur haqiqatni yaxshi anglagan va targ'ib etgan. Masalan, "Avesto"da bug'doy — non, eng zarur rizq, yovuzlikni haydaydigan kuch sifatida ta'riflanadi. Xirmon ko'tarilganda yovuz devlar doddab qochar emish. Haqiqatan, faqat och qolmaslik, qay yo'l bilan bo'lsa ham bolasining qornini to'ydirishni o'ylaydigan odam qanchalik ma'rifati bo'lmasin, "Jinoyat va jazo" asari qahramoni kabi qonunbuzarlikka yaqin yuradi. Ko'pincha uning ma'naviyat, ma'rifati haqida o'ylashga vaqti ham, imkoni ham bo'lmaydi. Shu bois, bunday shaxslarni to'liq qoralab ham, yoqlab ham bo'lmaydi. Chunki ular o'sha jamiyatning mahsulidir.

Mamlakatlar ham insonga o'xshaydi. Iqtisodiy suverenitet mamlakat taraqqiyotida juda muhim. Yurt iqtisodiy jihatdan barqaror bo'lsa, barcha jabha birdek taraqqiy etadi. Mustaqillikning ilk yillarini eslang: odamlar shaharlarda bitta

# MAS'ULIYATI BIR NECHA KARRA ORTGAN YANGI XALQ VAKILLIK TIZIMI

Har qanday davlatning yuzi, obro'-e'tibori Konstitutsiyasidir. Boisi, unda inson — jamiyat — davlat manfaatlarini aks etib, mamlakatning siyosiy, iqtisodiy, huquqiy, ijtimoiy, mafkuraviy munosabatlari tartibga solinadi.



Narimon UMAROV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati

Bu yil mamlakatimizda O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganining 32-yilligi keng nishonlanmoqda. Bundan bir yil avval yangi O'zbekiston tarixida birinchi marta xalqimizning hamjihatligi va yakdilligi asosida Konstitutsiyamiz yangi tahrirda qabul qilindi. O'zbekiston suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat ekanini qat'iy belgilab qo'yildi.

O'tgan qisqa davrda asosiy qonunimizdagi normalar asosida ko'plab qonun va qonunosti hujjatlariga

o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Shuningdek, parlament palatalari faoliyatidagi parallellik va bir-birini takrorlovchi vakolatlariga aniqlik kiritildi. Senat a'zolari 100 nafardan 65 nafarga, Qonunchilik palatasi Spikeri o'rinbosarlari soni esa 7 tadan 2 taga qisqartirildi. Bunda Spikerning o'rinbosarlari fraksiya a'zosi bo'lishi mumkin emasligi va lavozimda bo'lish davrida siyosiy partiyadagi a'zolikni to'xtatib turishi belgilandi.

Bugungi kunda Bosh qonunimiz mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy, siyosiy-huquqiy va ma'naviy-madaniy hayotining barcha sohasidagi izchil islohotlar ortiga qaytmasligining mustahkam huquqiy kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining birinchi majlisidagi nutqida bu yilgi parlament saylovlari ilk marta yangilangan Konstitutsiyamizga muvofiq o'tkazilgani, parlamentning huquq va vakolatlari sezilarli darajada kengaygani, mas'uliyati bir necha karra ortgan yangi xalq vakillik tizimi shakllantirilganini ta'kidladi. Parlamentni xalqimizga yanada yaqinlashtirishga xizmat qiluvchi qator amaliy takliflarni ilgari surdi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda 100 mingdan kam bo'lmagan fuqarolar o'z takliflarini quyi palataga kiritish huquqiga ega ekanini kafolatlandi. Davlatimiz rahbari ushbu masalaga e'tibor qaratib, fuqarolarning tashabbuslarini faol qo'llab-quvvatlash maqsadida Qonunchilik palatasi huzurida Jamoaviy tashabbuslar bo'yicha parlament komissiyasi tashkil etishni taklif qildi. Ushbu tashabbusni deputatlar yakdillik bilan qo'llab-quvvatladi.

# QULAY INVESTITSIYAVIY VA ISHBILARMONLIK MUHITI

## Shu ikki omil kafolatlanishi tadbirkorlikning jadal taraqqiy etishiga zamin yaratmoqda

Konstitutsiyamiz qabul qilingan kunga bag'ishlangan bu yilgi bayram tadbirlariga "Konstitutsiya — erkin va farovon hayot garovi!" g'oyasi bosh shior qilib tanlangani bejiz emas. Zero, mamlakatimizdagi islohotlar negizida insonni rozi qilish, xalqimizning erkin va farovon hayotini ta'minlashdek bosh maqsad mujassam.

Bugun iqtisodiyotimiz barqaror o'sib boryapti. Buni dunyodagi nufuzli xalqaro tashkilotlar, xorijiy davlatlar yetakchilari e'tirof etmoqda. Yaqinda Xalqaro valyuta jamg'armasi mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti ilk bor 100 milliard dollardan oshganini tasdiqladi.

Prezidentimiz Oliy Majlis Qonunchilik palatasining O'zbekiston Respublikasi Bosh vaziri nomzodini ko'rib chiqishga bag'ishlangan majlisidagi nutqida "Jahon miqyosida hukm surayotgan bugungi o'ta keskin va og'ir sharoitda yurtimizda tinchlik va hamjihatlikni saqlab, iqtisodiyotimizda barqaror o'sishni ta'minlab, mana shunday marra-larga erishish oson bo'lmaganini barchamiz yaxshi tushunamiz", dedi.

Ayni paytda yurtimizda aholi soni 37 milliondan oshdi. Kelgusi 5 yilda esa bu nufus 40 milliondan ortishi kutilmoqda. Bunday demografik o'sish, albatta, katta imkoniyat. Shu bilan birga, oldimizga yangi-yangi vazifalarni qo'yimoqda. Ayniqsa, kambag'allikni qisqartirish, ekologiya, energetika, transport, yo'l, ichimlik suv ta'minoti, aholini uy-joy bilan ta'minlash kabi muhim sohalarida xalqimizning talab va ehtiyojlari tobora o'sib bormoqda.

"O'zbekiston — 2030" strategiyasida kelgusi yillarda mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti qiymatini 160 milliard dollarga yetkazish maqsad qilingan. O'z vaqtida ko'rilgan chora-tadbirlar natijasida bu yilning o'zida yalpi ichki mahsulot qiymati 110 milliard dollarga yetishi kutilmoqda.

Bunday natijaga erishishda, albatta, tadbirkorlik subyektlarining munosib ulushi bor. Tadbirkorlik — qariyb barcha soha lokomotivi, desak ayni haqiqat. Chunki bugun O'zbekiston taraqqiyotida, jahon bozorida mustahkam o'rin egallashida biznes vakillarining o'rni beqiyos.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning 67-moddasida "Davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi. Tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli. O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar,

xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi", deya qayd etilgan.

— Soliq stavkalari kamaytirilishi, asossiz va noqonuniy tekshiruvlarga barham berilishi, ayrim moliyaviy jarimalar bekor qilinishi tadbirkorlik muhitining ijobiy tomonga o'zgarishiga sabab bo'ldi, — deydi Prezident huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti yetakchi ilmiy xodimi Qahhor Jumayev. — Bunday yetti-sakkiz yil oldin boshlangan amaliy ishlar samarasi yurtimizda ishbilarmonlik muhiti taraqqiy etib borayotgani, yangidan yangi tadbirkorlik subyektlari tashkil etilayotgani, aholining salmoqli qismi shu sohada mehnat qilayotganida ham yaqqol namoyon bo'layotir. Islohotlar, o'z navbatida, bu boradagi qoidalarni Konstitutsiya darajasida mustahkamlashni taqozo etdi. Asosiy qonunimizning 67-moddasida belgilangan "davlat qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlaydi", degan norma tadbirkorlik subyektlari uchun muhim konstitutsiyaviy kafolat bo'lib xizmat qiladi. Shuningdek, bu norma davlatdan tadbirkorlik faoliyatiga qaratiladigan e'tiborni yanada kuchaytirishni talab etadi. Bu borada qanday huquqiy-normativ hujjatlar qabul qilindi, degan savol tug'iladi. Birgina Prezident huzuridagi Qonunchilik va huquqiy siyosat instituti joriy yilning o'tgan davrida 80 yaqin qonun loyihalarini ilmiy ekspertizadan o'tkazdi va vakolatli davlat organlariga xulosalarini taqdim etdi.

Ushbu qonun loyihalari bevosita tadbirkorlik faoliyati bilan bog'liq. Masalan, "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritildi. Xususan, Konstitutsiyamizning 67-moddasidagi tadbirkorlar qonunchilikka muvofiq har qanday faoliyatni amalga oshirishga va o'z faoliyati yo'nalishlarini mustaqil ravishda tanlashga haqli ekaniga doir konstitutsiyaviy norma ushbu qonunga kiritildi. Shuningdek, shu moddadagi O'zbekiston Respublikasi hududida iqtisodiy makon birligi, tovarlar, xizmatlar, mehnat resurslari va moliyaviy mablag'larning erkin harakatlanishi kafolatlanadi degan norma ham ushbu qonunda o'z ifodasini topdi.

Bundan tashqari, "Yer kodeksi" hamda "Xususiy mulkni himoya qilish va mulkdorlar huquqlarining kafolatlari to'g'risida"gi, "Qishloq xo'jaligiga mo'ljallanmagan yer uchastkalarini xususiy lashtirish to'g'risida"gi qonunlarga ham konstitutsiyaviy normalar kiritildi.

Joriy yilda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi qonunga ko'ra, tadbirkorlik va ishbilarmonlik muhiti bilan bevosita bog'liq bo'lgan qator, xususan, "Davlat boji to'g'risida"gi, "Ixtirolar, foydali modellar va sanoat namunalari to'g'risida"gi qonunlarga o'zgartirishlar kiritildi.

Buning ijobiy jihatlari shundaki, O'zbekistonda norezident hisoblangan xorijlik fuqarolar o'zlarining intellektual mulkka egalik huquqini davlat ro'yxatidan o'tkazishda ayrim cheklorlar mavjud edi. Qonun bilan "norezident" tushunchasi chiqarib tashlandi va "jismoniy va yuridik shaxslar" termini kiritildi. Natijada davlat boj stavkalari norezidentlar uchun ham, O'zbekiston fuqarolari uchun ham bir xil etib belgilandi.

Davlatimiz rahbarining joriy yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tadbirkorlik subyektlari to'rt toifaga, jumladan, yuqori, o'rta, qoniqarli va quyi barqarorlik reytinglariga ajratildi. Masalan, yuqori barqarorlik reytingiga erishgan tadbirkorlik subyektlariga qator imtiyozlar ko'zda tutilgan. Bu ham, o'z navbatida, sohani rivojlantirishga xizmat qiladi.

Lutfulla SUVONOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



Mehnatga layoqatsiz va yolg'iz keksalar, nogironligi bo'lgan shaxslar hamda aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand boshqa toifalarining huquqlari davlat himoyasidadir. Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining turmush sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga hamda ularning asosiy hayotiy ehtiyojlarini mustaqil ravishda ta'minlash imkoniyatlarini kengaytirishga qaratilgan choralarini ko'radi.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 57-moddasidan.

www.yuz.uz yuz.uznews yuz\_official yuz.uz\_news yuz

3-dekabr — Xalqaro nogironlar kuni

# DAVLATIMIZ MEHRLI SIYOSATINING BIR BO'LAGI



Ta'lim, xususan, uyg'un ta'lim farovon va inkluziv jamiyatlar yaratishning asosiy omilidir. Ammo butun dunyo bo'ylab har bir bolaga o'qish va rivojlanish uchun adolati imkoniyat berish uchun qat'iy choralar ko'rilmasa, sifati ta'lim ozchilikning ekskluziv imtiyoziga aylanib qolishi xavfi bor. Shu bois, bugun uyg'un ta'limni rivojlantirish global darajadagi jiddiy muammo sanaladi.

vaqtning o'zida bir nechta fanning nazariy asoslari va hayotdagi ahamiyatini tushunib, o'zaro bog'lashni o'rganadi. Bu integratsiya o'rganilayotgan bilimlarni nafaqat nazariy, balki amaliy qo'llashga yordam beradi.

Ikkinchidan, uyg'un ta'lim oluvchilarning ijodiy va tanqidiy fikrlashini rivojlantirish.

uyg'un ta'lim oldidagi eng katta maqsadidir.

Beshinchidan, ijtimoiy va jamoaviy ko'nikmalarni rivojlantirish. Uyg'un ta'lim o'quvchilarga jamoada ishlash, boshqalar bilan hamkorlik qilish va umumiy maqsadga erishish kabi ijtimoiy ko'nikmalarni rivojlantirishga qaratilgan. Bu uyg'un ta'lim oluvchilarning jamiyatda faol ishtirokchilar bo'lib yetishishiga katta yordam beradi.

Oltinchidan, ishlash va ilmiy-ijodiy salohiyatni rivojlantirish. Uyg'un ta'lim o'quvchilarga nafaqat nazariy bilimlarni oshirish, balki shaxsiy va kasbiy salohiyatini rivojlantirishga ham yordam beradi. Bu esa uyg'un ta'lim oluvchilarni mustaqil ishlash, ijodiy izlanish va yangi g'oya hamda yechimlar ishlab chiqishga o'rgatadi.

Yettinchidan, uyg'un ta'lim oluvchilarni mustaqil faoliyatga yo'naltirish. Uyg'un ta'limdagi asosiy maqsadlardan biri o'quvchilarni mustaqil fikrlash va qaror qabul qilishga o'rgatishdir. Bu o'quvchilarga bilim va ko'nikmalarini turli sohadagi muammolarni hal qilish uchun ishlatish imkonini beradi.

Sakkizinchidan, jamiyat va tabiatga mas'ul munosabatni shakllantirish. Bu ijtimoiy-iqtisodiy faol hayotda uyg'un ta'lim oluvchilarning ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy huquqlaridan faol va o'rinni foydalanish, ular asosida mustaqil fikr, qarash va pozitsiyaga ega bo'lish, qarorlar qabul qilish bilan tabiat va ekologiyaga oid, davlat taraqqiyoti va jamiyatning ijtimoiy, axloqiy o'zgarishlariga, uning kelajak avlod uchun oqibatlariga befarq bo'lmashliq psixologiyasini shakllantirish muhimligiga asoslanadi. Uyg'un ta'lim boshqa ta'lim shakllaridan o'ziga xosligi va murakkabligi bilan ajralib turadi.

Uyg'un ta'limni rivojlantirish mamlakatdagi ta'lim tizimini yaxshilash, barqarorlashtirish va ijtimoiy talablarga moslashtirish maqsadida davlat tomonidan amalga oshiriladigan strategiya va tadbirlar majmuasidir. Ta'lim oluvchilarning ma'naviy, intellektual, ijtimoiy va jismoniy rivojlanishini ta'minlashga erishish uchun davlat o'zining ta'lim siyosatini belgilaydi va amalga oshiradi. U mamlakatda inson kapitalining yanada o'sishi va

rivojlanishiga xizmat qiladi. Alohida e'tiborga muhtoj, imkoniyati cheklangan davlat tomonidan keng ko'lamli va uzluksiz ijtimoiy himoya, qo'llab-quvvatlov chora-tadbirlari va xarajatlari qisqarishiga ijtiboiy ta'sir ko'rsatadi.

Mamlakatimizda nogiron va rivojlanish ehtiyoji bo'lgan bolalarning sifati ta'lim olishi, keyinchalik munosib ish topishi uchun chinakam inkluziv sharoit yaratish bo'yicha davlatimiz tomonidan zarur chora-tadbirlar ko'rib kelinmoqda. Xususan, jismoniy nuqsoni bo'lgan ko'plab bolalar umumiy o'rta ta'lim maktablariga muntazam qatnashmasligi sababli ayda sifatsiz ta'lim olishga majbur bo'lmog'da. Bu o'rinda muammo bolaning jismoniy holatida emas, balki maktablarda sharoit va qulaylik yo'qligidadir. Bunga sabab bolalarda tananing turli disfunktsiyalari, ya'ni jismoniy, aqliy, psixologik yoki hissiy (eshitish va ko'rish) buzilishi, o'ziga xos va individual ehtiyojlar yetarlicha hisobga olinmay kelinganidir.

Masalan, nogiron bola uchun maktab binosida yoritqich va boshqa kerakli sharoit bo'lishi kerak. Ko'rishda nuqsoni bo'lgan bola uchun Brayl alifbosi(dagi) darsliklar va maxsus moslamalar (Brayl alifbosi qurilmasi va grifel, Brayl displey va printer), kar va eshitmaydigan bolalar uchun — surdotarjimon xizmati, rivojlanishda nuqsoni va o'rganishda qiyinchiliklari bo'lgan bolalar uchun individual repetitorming qo'shimcha xizmati zarur.

Uyg'un ta'limni rivojlantirish maqsadida ba'zi chora-tadbirlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq. Avval, integratsiyalashgan ta'lim dasturlarini ishlab chiqish, axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etishni takomillashtirib borish zarur. Uyg'un ta'lim oluvchining individual ehtiyoji va qobiliyatini hisobga olgan holda shaxsiy yondashuv va individual ta'limni rivojlantirish lozim. Ta'limda ijtimoiy va jamoaviy ishtirokni rag'batlantirish, milliy va xalqaro tajribalar uyg'unligida o'quvchilarning pedagogik va texnologiyaviy muqobilashtirish, yangilangan ta'lim muhiti va resurslarini yaratish va boyitib borish zarur. Bular uyg'un ta'lim olish uchun munosib sharoit yaratishga xizmat qiladi.



Qobiljon ISAYEV, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti

Savol tug'iladi: uyg'un ta'lim bugun nima uchun zarur?

Birinchidan, jadal o'zgarishlar, turli global muammolar xavfi ortib borayotgan ayni pallada imkoniyati cheklangan bola o'ynashi, o'qishi, sog'lom tengdoshlari bilan muloqot qilishi, mashg'ulotlarda qatnashishi kerak. Shundaygina qobiliyati namoyon bo'ladi, umuminsoniy va milliy qadriyatlar ahamiyatini anglay oladi. Masalan, bolalar bog'chasida o'ziga g'amxo'rlik qilish va gigiyena qoidalari qatnashishi kerak. Maktabda hayot yorqin ranglardan iborat ekanini tushunish bilan birga, salbiy holatlarga javoban pozitsiyasini shakllantiradi. O'z oldiga aniq maqsadlar qo'yadi, o'zini takomillashtirishga intiladi. Bu bolaning faol fuqaroga aylanishini anglatadi.

Ikkinchidan, UNESCOning 2024-yilgi ta'lim monitoringi bo'yicha global hisobotiga ko'ra, 2015-yilda BM'Tning Barqaror rivojlanish maqsadi qabul qilinganidan keyin maktabga qatnaydigan bolalar va yoshlar soni 110 millionga oshgan. Biroq xuddi shu davrda maktabga bormagan bolalar va o'smirlar soni atigi 1 foiz kamaydi. Ushbu global turg'unlik natijasida dunyo bo'ylab 251 million bola

va o'smir maktabdan tashqarida qolmoqda. Mintaqaviy tafovutlar saqlanmoqda. Kam daromadli mamlakatlarda maktab yoshidagi bolalar va o'smirlarning 33 foizi maktabga bormaydi. Yuqori daromadli mamlakatlarda esa bu ko'rsatkich atigi 3 foizni tashkil etadi.

Uchinchidan, UNESCO tomonidan Jahon banki bilan hamkorlikda tayyorlangan va e'lon qilingan "Ta'limni moliyalashtirish tadqiqoti — 2024" hisobotida keltirilishicha, butun dunyo bo'ylab sifati ta'lim olish imkoniyatlarini yanada kengaytirish yo'lidagi asosiy to'siq mablag' yetishmasligi bo'lib qolayotir. Chunki har 10 ta davlatdan 4 tasi ta'limga davlat xarajatlarning 15 foizdan va YAIMning 4 foizdan kamini sarflaydi. Bu ikkisi kelishilgan me'yordan past ko'rsatkichlardir.

Mamlakatlar ta'lim sarmoyalaridagi tafovut ham hayratlanarli: 2022-yilda kam daromadli davlatlar har bir ta'lim oluvchiga atigi 55 dollar ajratgan bo'lsa, yuqori daromadli davlatlar 8543 dollar sarflagan. UNESCO va Jahon banki hisobotida ham qarzga xizmat ko'rsatish yuki ortib borayotgani haqida ogohlantirilgan. 2022-yilda Afrika davlatlari ta'limga qancha mablag' ajratgan bo'lsa, qarzga xizmat ko'rsatishga ham shuncha mablag' sarfladi. Shu bilan birga, butun dunyo bo'ylab ta'lim sohasiga ajratilgan rasmiy yordam ulushi 2019-yildagi 9,3 foizdan 2022-yilda 7,6 foizga qisqardi.

Yuqoridagi jiddiy holatlar uyg'un ta'limni dunyo miqyosida jadal va keng qamrovli tarzda rivojlantirish zarurligini ko'rsatadi.

Uyg'un ta'lim — alohida e'tiborga muhtoj insonlarning ma'naviy, jismoniy, ijtimoiy va intellektual rivojlanishini birgalikda ta'minlashga yo'naltirilgan ta'lim usuli. U yoshlarning har tomonlama taraqqiyotiga yo'naltirilgan bilim, ko'nikma va qobiliyatini shakllantirishga xizmat qiladi. Uyg'un ta'limning nazariy asoslari va ahamiyati



bilim olish jarayonida yagona va muvozanatli yondashuvni ko'zda tutadi. Mazkur ta'lim nafaqat bilimlarni egallash, balki alohida e'tiborga muhtoj, imkoniyati cheklangan insonlarning shaxs sifatida shakllanishi va mukammal rivojlanib borishi uchun muhim ahamiyat kasb etadi.

Bu ta'lim usulini tashkil etishdan asosiy maqsad imkoniyati cheklanganlarda imkoniyatlaridan to'liq foydalanish, hayotda bilimi, zehni va shakllangan qobiliyati asosida samarali qarorlar qabul qilish, jamiyat rivojida faol ishtirok etishga imkon beruvchi malakani shakllantirishdan iborat.

Alohida e'tiborga muhtoj insonlarga inkluziv ta'limni tashkil etishda quyidagi muhim vazifalarni ta'minlash talab etiladi:

Birinchidan, bilim va hunar egallashida fanlararo integratsiyani ta'minlash. Uyg'un ta'limda turli fanlar o'rtasidagi chegaralar yo'qqa chiqariladi. Ta'lim oluvchilar bir

Uyg'un ta'lim o'quvchilarga yangi va ijodiy yo'sinda fikrlashga yordam beradi. Bu maqsadga erishish uchun ularda turli fan va nuqtayi nazarlar asosida fikr yuritish, tahlil qilish va muammolarga yangicha yechim topish ko'nikmalari shakllantiriladi.

Uchinchidan, shaxsga yo'naltirilgan ta'limga asoslanish. Uyg'un ta'limning maqsadi har bir ta'lim oluvchining shaxsiy ehtiyoj va qiziqishlariga mos ta'lim berishdan iborat. Bu o'quvchiga bilim va ko'nikmalarini o'zi uchun ahamiyatli bo'lgan sohalar, ya'ni hayotda qo'llash imkonini beradi.

To'rtinchidan, hayotga yo'naltirilgan bilim berish. Uyg'un ta'limning maqsadi o'quvchilarga faqat nazariy bilim berish emas, balki bu bilimlarni hayotda qo'llashga imkoniyat yaratishdan ham iborat. Zero, uyg'un ta'lim oluvchilarning kundalik hayotdagi va kasbiy faoliyatdagi muammolarni hal qilishga tayyor bo'lishi muhim ahamiyatga ega va bu

## Mulohaza

Vatan tanlanmaydi. U inson manglaydigi o'zgartirib bo'lmay bitik. Bir inson umri davomida bir necha davlat fuqarosi bo'lib yashashi mumkin, ammo uning vatani bitta bo'ladi. Demak, farzandlik burchi ham yagona. Vatanni sevish tuyg'usi vatanparvarlik deya nomlanishini juda yaxshi bilamiz, lekin uning amaliyotidan barchamiz ham birdek xabardormizmi? Bu bevosita ta'lim va tarbiya jarayoni bilan bog'liq.

An'anaviy dunyo umumbashariy inqilob yoqasiga kelib qolganek. Hatto insoniy xislatlar ham o'zgarish, yangi shaklga evrilish ehtiyojini tuymoqda. Jumladan, vatanparvarlik tuyg'usi ham. Ilgari bu tuyg'uni shakllantirishda oila, mahalla, qarindosh-urug' ko'proq mas'ul bo'lgan bo'lsa, bugun butun millat mas'ul. Bu esa vatanparvarlik tarbiyasini mamlakat miqyosidagi ishga aylantiradi.

Yuqorida mazkur oliban tuyg'uni shakllantirish ta'lim va tarbiya jarayoni bilan bog'liqligini aytdik. Xo'sh, nega? Gap shundaki, ta'lim yoshlik davridagi uzluksiz jarayon. Uzluksiz singdirilgan har qanday g'oya esa singmay qolmaydi. Ta'lim dasturlarida zamonaviy ilm-fan bilan milliy o'zlik, ajdodlar iftixori, buyuk millat tushunchasini muntazam singdirib borarokamiz, bunday avlodni g'oyaviy tajovuzlar bilan mahv etishning iloji bo'lmaydi. Demak, bizning ta'limdan maqsadimiz qo'shaloq: birinchisi — yuqori intellektual bilimli yoshlarni voyaga yetkazish, ikkinchisi — ularda kuchli vatanparvarlik hissinii rivojlantirish.



## UCHINCHI RENESSANSNI BARPO QILISHNING ASOSIY DRAYVERI — VATANPARVARLIK

Oldimizga Uchinchi Renessansni barpo qilishdek ulkan maqsadni qo'yganimiz. Bu bo'yicha harakatlarimizda ham shahd kuchli, ya'ni maqsadimizga mahliyo bo'lib, ertaga qilamiz, indinga qilamiz deb o'tirganimiz yo'q. Quvonarlisi, bu maqsadda zarracha hayovilik mavjud emas, uni osmondan o'ladim yoki tushimizga kirib chiqmadi. Bu xuddi shu vatanda, xuddi shu tilu e'tiqod asosida yashagan bobolarimiz amalga oshirgan ish, tag'in bir emas, ikki marta. Birinchi va Ikkinchi Renessanslar orasi unchalik uzoq emas, biroq orada tarix tersi aylanib, uchinchisi kechikdi. To'g'rirog'i, bir necha marotaba sharoit yetildi, ammo imkoniyat bo'lmadi. Biroq bugun o'sha kutilgan davr — sharoit ham, imkoniyat ham ostonamizga kelib turibdi. "Amalga oshir, nimadan cho'chيسان, avlodlaring eplagan ishini sen eplomaysanmi?" degandek imo qilyapti xuddi. Shu jihatdan ham biz baxtiyor avlodmiz. Bizga Uchinchi Renessans sahifalariga o'z ismimizni yozish imkoniyati berildi. Nimani kutaymiz?!

Bir donishmand so'zlaydi: "Biror yumushni qanday qilishni bilmaslik ayb emas, zehn va sabr bilan o'rganish mumkin. Ammo nima qilmoqni bilmaslik uyat". Aksariyatimizda ayni muammo barga o'xshaydi: Uchinchi Renessans g'oyasini har kun eshitamiz, biroq uga qanday hissa qo'shishga ikkilanamiz, bisotimizni tiktilaymiz. Javob esa yagona: har kim bu ulug'vor maqsadga imkoniyatidan, salohiyatidan kelib chiqib hissa qo'shmoq'i

lozim. O'qituvchi sifati ta'lim bersa, ota-ona tarbiyaga hayot-mamot masalasi deb qarasa, muhandis ishini chin dildan bajarsa, amaldor kasbiga va vijdoniga xiyonat qilmasa va hokazo. Jamiyatda dastlab barqarorlik boshlanadi, bu esa yuksak parvozga ishora etadi. Ya'ni har jabhada muntazam natijadorlikka erishish bizni Uchinchi Renessansga tobora yaqinlashtiradi.

Xo'sh, o'zi Uchinchi Renessans g'oyasi bizga nima uchun kerak? Davlatimiz rahbari nega bunday ulug'vor tashabbusni ilgari surdi? Mustabid tuzum davrida millatimiz sovetlar "qolip"ida saqlab kelindi, sovetlashtirish keskin avj oldi. Bu vaziyatda asosiy xuruj ma'naviyatga, tarixiy o'zlikka qaratilishi tabiiy edi va shunday bo'ldi ham. Yoshlarga ajdod deganda tuzum dohiyasi tanishtirildi, tariximizda o'tgan ulug' sarkardalarimizga "yovuz" tamg'asi urildi, millatparvarlar "bosmachi"ga, ma'rifatparvarlar "xalq dushmani"ga chiqarildi. Ming afsuski, bu siyosat o'z ta'sirini o'tkazmay qolmadi, unga ishonildi. Zero, taqqoslashga, aniqlashtirishga manbalar ham yo'q, borlari ham "hayot uchun, ozodlik uchun xavfli" deya tavsilangandi. Natijada yangi dunyo xalqimizni shu suvratda taniy boshladi. Bu fojia edi.

Mustaqillikka erishdik, iqtisodiyotimizni oyoqqa qo'ydik, davlatimiz ramzlarini yaratdik, pulimiz, suvimiz, yer ostiyu yer usti boyliklarimiz o'zimizniki bo'ldi, ammo dunyoqarashimizni o'zgartirish orasini emas edi. Zindonda yotaverib, ozodlikka chiqqandan keyin quyosh nuridan panalagan odamday



bizning ham mustaqillikka moslashuvimiz oson kechgan yo'q. Bunga necha qovun pishig'i kerak bo'ldi! Nihoyat, bugun kimligimizni to'g'ri angladik, tarixiy fahmimiz o'zimizga qaytdi, do'st bilan dushmaning farfiga boradigan bo'ldik. Endi kimligimizni ko'rsatib qo'yadigan fursat yetdi. Ana shunday kutilgan pallada davlatimiz rahbari imkoniyatlarga mos, ulug'vor g'oya bilan millatga murojaat qildi va ko'pchilik buni katta quvonch bilan

kutib oldi. Biroq bu g'oyaning mohiyatini to'la anglamaganlar oramizda hali ham talaygina ekanini tan olishimiz kerak. Shu o'rinda ularga Uchinchi Renessans maqsadini targ'ib qilish, mohiyatini tushuntirish har birimizning vazifamiz bo'lishi lozim.

O'zbekiston so'nggi 7-8 yilda jahon reytinglarida muntazam yuqorilab bormog'da. Ta'lim, e'tiqod erkinligi, suverenitet, iqtisodiy farovonlik, salomatlik... Ko'plab

sohalarda o'rnmiz ta'riflashga arzigulik darajada ko'tarilib bormog'da. Bu, shubhasiz, davlatimizda yuritilayotgan adolatli siyosat mahsuli. Sportdagi yutuqlarimiz orqali millionlab insonlar O'zbekiston nomini tanimoqda, iqtisodiy farovonlik borasidagi xalqaro reytinglar yaxshilanuvi butun dunyodan sarmoyadorlarni jalb qilyapti, sog'liqni saqlash sohasidagi yangilanishlar butun dunyodan bo'lmasa ham yon-atrofimizdagi mamlakatlar aholisini shifo umidi bilan yurtimizga boshlab kelyapti. Bular barchamizni xursand qiladi, ammo biz bundan ham ko'prog'iga loyiqmiz, tom ma'noda haqdormiz. Bu yo'lda barchamizning mushartakligimiz sababi esa yana vatanparvarlik. Demak, yangi O'zbekistonda Uchinchi Renessansni barpo qilishning asosiy drayveri vatanparvarlik deya baralla aytishimiz mumkin.

Tomirlarimizda qon oqayotgan ekan, yuragimizda insoniylik nishonalari barbarot ekan, o'zimizni jamiyatning bir bo'lagi sifatida tasavvur qilar ekanmiz, albatta, vatan oldidagi burchimizni ado etish, uni yuksaltirish yo'lidagi g'oya va maqsadlarga hissa qo'shmoqlik ixtiyoriy emas, majburiylik adolatdan bo'ladi. Zero, gardanimizda vatanimizni bobolarimiz maqsad qilgan yuqori darajalarga olib chiqish vazifasi turibdi.

Jonibek ERKIN, jurnalist

Yer, yer osti boyliklari, suv, o'simlik va hayvonot dunyosi hamda boshqa tabiiy resurslar umummilliy boylikdir, ulardan oqilona foydalanish zarur va ular davlat muhofazasidadir.

O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 68-moddasidan.



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz\_official



yuz.uz\_news



yuz

## 2025-YIL – ATROF-MUHITNI ASRASH VA “YASHIL” IQTISODIYOT YILI

# TABIAT

Ochiq sahni bir yarim sotixning nari-berisidagi hovlimizda o'nga yaqin mevali daraxt va ikki tup nastarin bo'lardi. Otamning tayinlovi bilan kuzda ulardan to'kilgan barg-xazonlarni singillarim supurib, uyum qilar, men katta qop, xaltalarga solib, kun-kunora bir chaqirim nariga — ko'cha boshidagi chiqindixonaga tashlab kelar edim. Gohida devor tagida chuqur kavlanib, sarg'aygan barglar ko'mib qo'yilardi.

# O'ZIMIZ

## Yoxud bir umrga tatigulik tanbeh

Bir kuni chiqindixonaga olib borishga ham, yerga ko'mib, ustidan tuproq tortishga ham erinib, to'plangan xazonni yoqib yubordim. O'zimcha “Aqli ish qildim, 5-6 qopni orqalab yuramanmi, yonganidan keyin nari borsa, yarim chelak kul chiqadi-da”, deb o'yladim shekilli.

Namiqqan barglar burusib, achchiq va yuquq tutun chiqarib yona boshladi. Bir payt devor qo'shni-miz Sanobar amman yugurib chiqdi. Mahallamizdagi kattalarni yoshiga qarab “amma”, “xola”, “opoqi”, “amaki”, “buva”, “aya”, deb chaqiraverar edik.

Hoy bola, nima qilyapsan? Nega bargni yoqding? Uyumi tutunga to'ldirding-ku... Mo'ylabim sabza urib, ovozim do'rigillagan, gap-so'zlarim dag'allashgan o'spirin paytim edi.

Nima qilibdi, hozir 10 daqiqada kul bo'ladi. Barg to'kilaverib, jonga tegdi, yondirib yo'qotmasam, eplab bo'lmayapti-da, amma, — dedim xushlamay.

— Seni kap-katta yigit desam, yosh boladan ham o'tib tushding-ku. O'chir, suv sep. Havoni zaharlama, — deya amman o'zi olovni so'ndirishga tushdi.

— Eshik, derazalarni yopib oling, namuncha vahima qilasiz, — dedim do'rigillab.

Sanobar amman qo'ymadi, olovni o'chirdi. Tibbiyot sohasida uzoq yil ishlab, nafaqaga chiqqani uchun masalarni menga, bir chekkada qarab turgan singillarimga baland ovozda ko'yish aralash tushuntira ketdi:

— Bolam, boshqa bunday qilmagin. Tutun, ayniqsa, xazon yonganda chiqadigan tutun o'ta zararli — changu mikroblardan ham yomon. Odamning nafas yo'llarini shikastlaydi, tabiatga, mana bu daraxt va o'simliklarga zarar yetkazadi, havoni ifloslantiradi. Zavod-fabrikalarda odamlar maxsus niqob taqib ishlaganini ko'rganmisan? Bekorgamas bu, bolam. Tutun — yomon narsa.

Yana bir-ikki kundan keyin barglar to'kilib bo'ladi. Chiqindixonaga olib chiqishdan erinma, hech narsa qilmaydi. Boshqa xazon yoqmagin.

O'shanda bir zunda uyiga tutun o'rilgan qo'shmlar ham chiqib keldi. Vaziyat keskinlashib, majlisga aylanib ketdi. Xalil buva, Xosiyat xola, Turg'un amaki biri olib, biri qo'yib, tanobimni rosa tortdi. Tepamda turib, barglarni qoplatishdi, “Qorong'i tushganda olib chiqarman” deyimimga qaramay meni chiqindixonaga g'izillatishdi.

Oradan ancha yil o'tib ketgan bo'lsa-da, ammaning tanbehi har bir so'ziga yodimda qolgan. Qancha suv oqib ketgan, qancha qovun pishig'i ortda qolgan bo'lsa ham o'sha gaplar qulog'im ostida jaranglayveradi. Ayniqsa, 10-15-yil avval poytaxtimiz ko'chalarida xazon yoqish avj olgandi. Mahalla, gazarlarni qo'yavering, markaziy ko'cha yoqalari, katta-kichik xiyobonu maydonlarda ham to'kilgan barglarning

kuli ko'kka ko'tarilayotganini ko'rganimda ammaning ovozi eshitgandek bo'laverdim. Jamiyatimizga Xalil buva, Xosiyat xola, Turg'un amaki kabilarning tanbehi yetishmayotganidan o'kinardim.

Iqlim o'zgarishlarining salbiy oqibatlarini yaqqol ko'zga tashlana boshlagach, bugun ekologik vaziyatni, tabiatni asrashga dunyo miqyosida e'tibor kuchaydi. Muammo ko'lami kengayib, kattalashib, endi uning oldini olish emas, bartaraf etish choralarni kechiktirmasdan ko'rish talab etilmoqda. Mamlakatimizda ham tabiat, ekologiya, suv tejamlorligi va tabiat muvofiqligi, barqarorligini ta'minlovchi ko'plab masalalarga o'ta jiddiy munosabat shakllanyapti. Jumladan, havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, global isish, turli tabiiy ofatlar va ularning atrof-muhit hamda aholi sog'lig'iga

masalalariga alohida to'xtalib, havo va suvning ifloslanishi, tuproq eroziyasi, cho'llanish, qazilma yoqilg'ilarni behisob ishlatish global isishga, tabiiy ofatlarning ko'payishiga olib kelayotgani, atrof-muhit va aholi sog'lig'iga zarar yetkazayotganini qayd etdi.

Bugun mutaxassislar yangi yilga berilgan nom mamlakatimizda ekologik muammolarni hal etish va barqaror rivojlanishni ta'minlash borasida muhim qadam bo'lganini e'tirof etmoqda. Ushbu tashabbus nafaqat ekologik muammolarni hal qilish, balki iqtisodiy o'sishni yanada barqaror va yashil yo'nalishda amalga oshirishga qaratilgan turli tahlillarda ta'kidlanayapti.

Yurtimizning go'zal tabiati, musaffo havosi, ziloldek tiniq va shifobaxsh suvi har qanday kishini o'ziga maftun etadi. Mana shunday betakror go'zallikni asrab-avaylash, kelajak avlodga bus-butunligicha yetkazish har birimizning muqaddas burchimiz.

Yoshlar ongiga ekologik madaniyatni xalqimizning tabiatni asrash bilan bog'liq asriy an'ana va qadriyatlarini orqali singdirish eng maqbul yechimdir. Qadimdan o'zbek xalqining uluqchiligi borasida keksalar yoshlarga o'g'it bergan. Muqaddas manba va qadimiy rivoyatlarda ham erak kishi hayoti davomida uy qurishi, daraxt ekishi va komil farzand o'stirishi zarurligi ta'kidlangan.

O'zbekiston ekologik tarbiyaning samarali tizimini yaratish — eng muhim vazifalardan. Har birimiz ekologik bilim, ekologik madaniyatni, avvalo, oilamizdan boshlaganda holda yoshlarni kelajakka, atrof-muhitga, o'simlik va hayvonot olamiga mehr-muhabbat ruhida tarbiyalashimiz zarur. Ularda ekologik ong va tushunchalar qanchalik kichik yoshdan shakllansa, bu tarbiya shunchalik katta samara beradi. Bolalar tabiatni asrash, avvalo, o'zimizni va yaqinlarimizni asrash, degan fikrga keladi, shunga amal qiladi.

Tabiat — o'zimiz. Inson tabiatning ajralmas bo'lagi. Zaminimiz bag'ridan unib chiqqan har bir g'iyoh, har bir daraxt, o'rmonlar, hayvonot olami — mo'jiza! Bu tabiiy boylikka daxl qilinishning oldini olish, muhofaza qilish faqat soha xodimlarining ishi emas, balki barchaning burchidir. Chunki musaffollik, ekologik muvozanat barchamizga birday daxldor masala.

Nodir MAHMUDOV,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri



USHBU MAQOLANI QORAQALPOQ TILIDA HAM O'QISH UCHUN QR-KODNI SKANER QILING!



# YERNI GO'ZAL QILGANI SAYIN GO'ZAL BO'LAR O'ZI HAM INSON...

Ancha yil ilgari qishlog'imizda bir kishi otasidan qolgan katta bog'ni buzib, o'rnini bedapoyaga aylantirgan ekan. Yeri boshqa fermer tasarrufiga o'tib ketgandan keyin bu yerda hech kim ishlamagan. U joy yantoqzorga aylanib, qarovsiz bo'lib qolgan. Yerning asl egasi ham moliyaviy yetishmovchilikdan qiynalib, ishlash uchun xorijsa ketgan. O'sha odam haqida gapirilganda “Tabiatni xafa qilish — yomon” degan ta'rif ishlatilganiga o'zim guvoh bo'lganman.

Oradan yillar o'tib, bu bog'ning o'ni boshqa qishloqoshimizga o'tdi. U yantoqzor o'rnida yana katta bog' barpo qildi. Shunday bog'ki, odamlarning aytishicha, oldingisi ham bunga tenglasholmas ekan. Bolaligimda yozning issig'ida, tush payti uxlamasdan yaqin-atrofdagi bog'larga “o'g'rilikka tushardik”. Endi eslasam, negadir faqat shu bog'dagina “qo'liga tushmagan” ekanmiz. Boshqa bog'larning qorovuli ushlab olib, jazo tariqasida meva terdirardi. Bu bog'ning egasi esa o'zini ko'rib ko'rmaganlikka olardi, nazarimda. Urishmasdi ham, ushlab ham olmasdi. Bora-

bora biz bu boqqa to'g'ridan to'g'ri boradigan odat chiqardik. Keyinchalik uning mevalaridan onalarimiz sharbat, murabbo tayyorlashi uchun chelak-chelak terib keladigan bo'ldik. Xullas, bog' bora-bora xalqni ko'rib qolgan. Bog' egasini qishloq ahli qattiq hurmat qilardi. Biror to'y-ma'arakaga aytilmay qolmas, unga davralarning to'ri ko'rsatilardi. Qahraton qishda sandal atrofida yig'ilib, murabbo yesak ham bog' egasini bir eslab, yoshi kattalar “Baraka topsin” deb duo qilib qo'yardi. Endi o'yilasam, bu insonning tabiatga yaxshiligi odamlardan qaytibdi. U mashaqqat bilan bog' o'stirdi, bog' esa uni xalq oldida hurmatli, savobga oshno qildi.

Davlatimiz rahbari joriy yil 20-noyabr kuni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi yig'ilishidagi nutqida “Tabiatni asrash — insonni asrash demakdir” dedi. Bu, shubhasiz, inson va tabiat orasidagi munosabatlarning bugungi ahvoriga berilgan haqqoniy baho, o'ziga xos eslatma bo'ldi.

Barchamiz ko'rib-bilib turibmiz: so'nggi yillarda sayyoramiz kuchli ekologik inqirozga duch kelmoqda. Mintaqamiz ham bu inqirozdan xoli emas. Suv resurslari tobora kamayib borishi havo sifatini pasaytirayotgani ko'pchilikni tashvishlantirmoqda. Biroq muammo faqat shundan iborat emas. Atmosferada karbonat angidrid va boshqa zaharli gazlar miqdori ortishi global isish jarayonini kuchaytirmoqda. Bu, o'z navbatida, muzliklarning erishi, dengiz sathining ko'tarilishi, ekstremal ob-havo hodisalari (qurg'oqchilik, to'fon, kuchli yomg'irning tez-tez ro'y berishiga olib kelmoqda.



O'rmonlarning haddan ortiq kesilishi, qishloq xo'jaligi va sanoat faoliyatidagi tartibsizlik, o'zgarib borayotgan iqlim sharoiti va boshqa ekologik stresslar tufayli tabiatdagi turli hayvonlar va o'simlik turlari yo'qolmoqda. Plastik chiqindilar, kimyoviy moddalar va og'ir metallar kabi zaharli moddalar suv, havo va yerda to'planib, ekotizimlarga zarar yetkazmoqda. Plastik chiqindilar, ayniqsa, dengizlar va okeanlar uchun katta xavf tug'dirmoqda.

Bugun energiya ishlab chiqarishning an'anaviy usullari, ayniqsa, qazib olinadigan yoqilg'ilarga tayanish ekologik zararga olib kelayotgani haqiqat. Qayta tiklanuvchi energiya

manbalariga o'tish jarayoni boshlangan, lekin bu hali global miqyosda yetarli darajada amalga oshirilmayapti.

Yuqoridagi inqirozli hodisalar bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lsa-da, uning markazida inson omili turibdi. Ya'ni muammolar odamzodning tabiatga jon kuydirmasligi oqibatida kelib chiqmoqda. O'rmonlarni kesayotgan ham, tartibsiz sanoat bilan shug'ullanayotgan ham, suv hazvalarini plastik va boshqa turdagi zararli chiqindilar bilan to'ldirayotgan ham, tabiiy resurslarni maqsadsiz soviryotgan ham inson, ya'ni o'zimiz. Ana tabiat bor kuchi bilan barchasini o'z holicha saqlab qolishga tirishmoqda, lekin uning bardoshi qanchaga

yetardi? O'ta-onasini ado qilgan nomaqbul farzanddek biz ham tabiatni — onamizni ado qilishdan to'xtamayapmiz.

Odada biror muammo haqida gap ketsa, unga umumshahar yihatdan baho berishga odatlanganmiz. O'zimiz ko'rmagan, guvohi bo'lmagan kamchiliklarni ro'kach qilishga, bu haqida darrov qiziq hikoyalarni to'qib olishga ustamiz. Lekin atrofimizni, hech bo'lmasa, o'zimizni baholashga ham vaqt ajratamizmi? Yo'lda ketayotib, ichib yurgan suvimiz tugab qolsa, bo'shagan idishni tashlagani chiqindi qutisi izlaymiz. U esa har doim ham topilavermasligi mumkin. Ana shunda to'rt tomonga alanglab, biror ariqimni, ishqilib panarog yemi mo'ljallaymiz. Yengilgina yelim idishni yana bir oz ko'tarib yurishga qiyinalamiz yoki uyalamiz. Lekin 8 milliard aholining chiqindisini ko'tarib turgan ona yerning bardoshi-chi? U ham balki qiyinalayotgandir?!

Bir davrada sayyoramiz borgan sari ifloslanayotgani haqida suhbat bo'ldi. Tanishimiz “Orol dengizining qurishi ham bekorga emas. U ham yana 50-60-yil tursam, chiqindiga to'laman deb o'ylagan-u qurib qo'ya qolgan”, deya hazil qildi. Davrada kulgi ko'tarildi. Lekin bu “latifa” yodimda qolib ketdi. Uzoq vaqt o'ylab yurdim. Chindan ham Orol bugun o'z holicha qolgandagina munosabatimiz qanday bo'lardi?! Axir inson oldidan oqqan suvning qadriini kech anglaydigan xilqat-ku. Tarbiyamiz shu bo'lgach, latifa chinga aylanmas edi?

Bizingcha, har bir inson tabiatni asragisi keladi. Axir kim toza havodan nafas olishni yomon ko'radi? Ammo muammo shundaki,

ko'pchiligimiz uni asrash uchun nimalar qilish kerakligini, tabiat nima ekanini to'liq anglamaymiz, farqiga bormaymiz. Aksariyatimiz daraxt ekish tabiatni asrashning bir qismi ekanini bilamiz, biroq har kuni ertalab o'nab litr ichimlik suvga yuvinishimiz haqida o'ylamaymiz. Yon-atrofimiz ozoda turishi uchun xazonlarni supurish kerakligini tushunamiz, ammo ularni tashishga erinib, yoqib yubora qolamiz. Bu ish havoni qanchalik ifloslantirishini anglamaymiz. Daraxtlarni kesib, o'rni binaqlar qurishga kelganda mana men, deb shaymiz, biroq bu qilmishimiz bilan shu daraxtlarda kun kechirayotgan nabotot olami ham qirilib ketishini o'ylab ko'rmaymiz. O'zimiz uyimizdagi chiqindilarni har soatiga chiqarib tashlaymiz, lekin shahrimizdagi chiqindi poligonlari oldidan burun jiyirib o'tamiz. Aksariyatimizning eng sevimli yumushimiz chang havoda yo'talib, mas'ullarni yomonlash bo'lib qolgan. Ha, aksariyatimiz tabiat nimaligining farqiga bormaymiz.

Qarindoshlarimizdan biri mashina oldidan bog'lib, maslahat so'radi. Unga elektromobil olishni tavsiya qildim. Azbaroyi zamonaviyligidan emas, tabiatga zarari kamroq ekanidan. Qarindoshimga shuni tushuntirdim. Unga esa bu taklifim yoqmadik. “E, bitta men benzinni mashina olsam, tabiat rasvo bo'lib qoladimi? Elektromobilning ovozi chiqmaydi, benzinda yuradigan mashinaning zavqini bera olmaydi” deb o'z fikrini asosladi. Endi o'ylayapman: yon-atrofimizdagi yana qancha odam shunday fikrlar ekan-a? Aslida, ko'pchiligimiz zavqimizni o'ylab, tabiatning g'amini yemaydigan insonlarga aylanib qolmadikmi? Yok “tabiatni asrash — insonni asrash” ekanini unuttukmi?

Har qilmishning oqibati bor, hatto tabiatga munosabatimizning ham. Biroq ana tabiat ancha bardoshi, dardini doim ham oshkor qilavermaydi. Ammo bir qo'zg'alsa, dardi to'satdan oshkor bo'lgan kasallikdek hammani dovdiratib qo'yishi muqarrar. Shuning uchun uni o'z vaqtida eshitaylik. Zero, o'zimizga ham, kelajak avlodlarga qiladigan katta yaxshiligimiz ham shu bo'lgay.

Jonibek ALIJONOV,  
“Yangi O'zbekiston” muxbiri

“Yangi O'zbekiston” va “Правда Востока” gazetalarini tahririyati” DM

MUASSIS:  
O'zbekiston Respublikasi  
Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:  
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqrib qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.  
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.  
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahifalandi.  
Gazetaning poligrafik jihatdan sifalini chop etilishiga “Kolopak” MCHJ mas'ul.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.  
Nashr indeksi — 236. Buyurtma — 4238.  
39932 nusxada bosildi.  
Hajmi — 3 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.  
Bahosi kelishilgan narxda.

“Kolopak” MCHJ bosmaxonasida chop etildi.  
Bosmaxona manzili: O'zbekiston, 100060.  
Toshkent, Yangi shahar ko'chasi, 1-A uy.  
Bosmaxona telefoni: (78) 129-29-29

Navbatchi muharrir: Yunus Bo'ronov  
Musahhir: Malohat Mingboyeva  
Dizaynerlar: Zafar Ro'ziyev  
Xurshid Abdullayev

Manzilimiz:  
100060, Toshkent shahri,  
Shahrisabz ko'chasi, 85-uy